

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI
FA'KULTETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA NAZARIYASI VA AN'ANAVIY
IJROCHILIK KAFEDRASI**

**“BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING BADIY DIDINI
SHAKLLANTIRISH”
(O'zbek mumtoz musiqasi misolida)**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: kunduzgi bo'lim talabasi Burxonov M.H.
Ilmiy rahbat: dots. N.S.Kiyamov

Malakaviy bitiruv ishi musiqa nazariyasi va an'anaviy
ijrochilik kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ___maydagi majlisida muhokama
qilindi va himoyaga tavsiya etildi (Bayonnoma №10)

Kafedra mudiri: **kat.o'qit. Sh.N.Mustafoyev**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning
2014-yil ___iyundagi majlisida
Himoya qilindi va ___foizga baholandi
(Bayonnoma №)
YaDAK raisi:
A'zolari:

MUNDARIJA :

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING BADIY DIDINI SHAKLLANTIRISH (O'zbek mumtoz musiqasi misolida)

KIRISH	3-6
I-BOB. O'zbek xalq musiqa madaniyatining tarixiy-nazariy asoslari.	
1.1. O'zbek xalq musiqa merosining vujudga kelishi	7-26
1.2. Sharq mutaffakirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to'g'risida	27-36
II-BOB. O'zbek xalq musiqiy merosini o'rganishning o'ziga xos jihatlari.	
2.1. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy didni shakllantirish asosidir	37-51
2.2. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqiy didni shakllantirishda xalq qo'shiqlaridan foydalanish yo'llari.....	52-60
XULOSA	61-62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	63-64

**MAVZU: BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI ESTETIK DIDINI
SHAKLLANTIRISH
(O'zbek mumtoz musiqasi misolida)**

REJA:

KIRISH.

I-BOB. O'zbek xalq musiqa madaniyatining tarixiy-nazariy asoslari.

1.1. O'zbek xalq musiqa merosining vujudga kelishi.

1.2. Sharq mutaffakirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to'g'risida.

II-BOB. O'zbek xalq musiqiy merosini o'rganishning o'ziga xos jihatlari.

2.1. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy didni shakllantirish asosidir.

2.2. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqiy didni shakllantirishda xalq qo'shiqlaridan foydalanish yo'llari.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH.

“Musiqqa qalbning ahloqiy, etik jihatlariga ta’sir ko’rsata olish layoqatiga qodir; modomiki musiqqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog’i lozim”.

Milliy dastur yuksak ma’naviy va a’loqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etar ekan, bu borada musiqiy merosimizning o’rni ham ahamiyatlidir.

Xalq ma’naviy boyligining kuzgusi bo’lgan o’zbek xalq qo’shiqlarining zarchashmalari tarixan olislardan boshlanib, xalq ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog’liq holda rivojlanib keldi. Xalq qo’shiqlarining ilk ko’rinishi inson ongining rivojlanishi natijasida mehnat jarayonida vujudga kelgankim, mehnatkash xalq mehnat unimidan va tabiat go’zalliklaridan ilhomlangan holda o’zlarining qo’shiq va cholg’u ohanglarini ijod qilganligi bu musiqaviy meros ‘ozirgi vaqtda o’zbek musiqqa madaniyatining rivojlanishi uchun tub asos bo’lish bilan bir vaqtda, jahon xalqlarining ham sevimli qo’shiqlariga aylanib qolayotganligining guvohi bo’lamiz.

O’zbek xalq musiqqa merosi bilan tanishar ekanmiz, biz mehnatkash xalqning tarixiy bosib o’tgan yo’li, urf – odatlari, marosimlari, do’stlik, qaxramonlik, Vatanga muhabbat, sevgi – sadoqat, adolat to’g’risida keng tushunchaga ega bo’lamiz.

«Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy taziyoqqa qaramay O’zbekiston xalqi avloddan avlodga o’tib kelgan o’z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o’ziga xos an’analarni saqlab qolishga muvaffaq bo’ldi», - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov.

Jumladan, musiqiy tarbiyani ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan musiqqa merosini o’rganishdan boshlasak yomon bo’lmas edi. Chunki akademik Kabalevskiy aytganidek «Xalq qo’shiqlari xalqning ensiklopediyasidir».

O’zbek milliy musiqasini yaxshi biladigan kompazitor N. Mironov shunday degan edi: «O’zbekiston mehnatkashlari o’rtasidagi she’riyatga, musiqaga va

boshqa san'atlarga ishtiyoq zo'r. Butun o'zbek xalqining xarakteridagi bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Deyarli xar bir xonadonda dutor, tanbur yoki nay kabi sevimli musiqa asboblarini topish mumkin. O'zbeklar o'zlarining shoir va adiblarini, shuningdek hofizlarini, ayniqsa xushovoz ashulachilarini juda qadirlaydilar», - deb baholagan. O'zbek xalq marosimlari, yig'inlari, bayramlari, shodiyonalari musiqa va qo'shiqsiz o'tmas, doimo bu yig'inlarda xalq qo'shiqchilari, hofizlar ishtirok etib, xalqqa estetik zavq, kishi rexini g'amdan xolos etib, ularga mehnat bobida kuch va ma'naviy oizq baxsh etar edi.

Musiqa insoniyat ma'naviyat taffakurining buyuk ne'matlaridan biridir. Xaar bir xalqning ma'naviy madaniyatiga erishgan yutuqlari uning adabiyot va sa'natida, binobarin musiqa san'atidagi betakror ijod numunalari bilan ham qadrlanadi va e'tirof etiladi. Shu ma'noda xalqimiz o'zining boy milliy va mumtoz musiqasi zamonaviy ijro san'ta bilan jahon xalqlari madaniyati o'zining asosli o'rmini egallab kelmoqda.

O'zbek milliy madaniyatning mustaqillik va istiqlol davrida yuqori oliy cho'qqilarga ko'tarilishi g'arbda ma'lum miqdorda vaysayotgan, o'zbeklar o'zining tizimi, adabiyotini, madaniyatini yo'qotmoqda, degan yolg'on, buxton gaplariga keskin zarba berdi. O'zbek xalq qo'shiqlari tuzilish jihatdan sodda va oddiy bo'lib, musiqa ohanglari dilga yoqimli ijro etish uchun ham qulay, qo'shiq so'zlari ham ma'nolidir. Xalq qo'shiqlari o'zbek kompazitorlari ijodida asosiy o'rin tutib musiqa san'atining qaysi janrda bo'lmasin, ya'ni operadami, baletdami, simfonik asarlardami, yoki estrada san'atdami salmoqli ahamiyat kasb etib ma'naviy ahloqiy yoshlarning tarbiyasida ulkan ahamiyat kasb etib kelmoqda. O'zbek xalq qo'shiqlarini ya'ni ajdodlar merosini atroflicha o'rganish davr talabidir.

Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi. O'zbek xalqining boy, o'ziga xos, ko'pqatlamli mumtoz musiqa merosini to'plash, hujjatlashtirish, uning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy, ijodiy o'zlashtirish borasida o'tgan yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Keyingi yillarda o'zlamizda bu ishlarni izchil davom ettirish bilan bir qatorda o'quvchi-

yoshlarni mumtoz musiqa san'ati vositasida tarbiyalash, ularning ongiga maqom san'atini, ananaviy ijrochilik tuyg'ularini shakllantirish, bu borada ularning talab va ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga qaratilgan masul vazifalar ko'ndalang bo'lib turibdi. Shu o'rinda avvalo madaniyat va san'at oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jahon xalqlari barobarida ayniqsa o'zbek milliy va mahalliy badiiy ananalarini jiddiy o'zlashtirish, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni bo'lajak musiqa o'qituvchilari qalbida shakllantirish, ularni mumtoz musiqa vositasida tarbiyalash hamon mamlakatimizda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada o'zbek mumtoz musiqa san'atini targ'ib qilayotgan musiqashunoslar, bastakorlarning yozgan asarlarini, ularning fikr va mulohazalari ishimizning dolzarbligini yanada yorqinlashtirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi: Bo'jalak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti: Bo'jalak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini tarbiyalash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: Bo'jalak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini tarbiyalashning mazmun-mohiyatini, shakl va uslublarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bir qator yangi tadbirlarni amalga oshirish;

2. O'zbek xalqining musiqiy merosini dars va mashg'ulotlar jarayonida tizimli o'rganib borish asosida o'quvchi-yoshlarda mumtoz musiqa san'atimizga havas, o'rganish his-tuyg'ularini shakllantirish.

3. Xalq musiqasi, dostonchilik, maqomchilikka bag'ishlangan maxsus o'z fanlarni joriy qilish.

4. Bo'jalak musiqa o'qituvchilarni mumtoz musiqiy merosimizdan xalq qo'shiqlari, maqom san'atimizga yaqindan oshno qilish kabi pedagogik-psixologik vazifalarni yoritishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi:

- Bo'jalak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini shakllantirish ishlariga pedagogik-psixologik nuqti-nazardan qaralib, chuqur o'rgatish ishlari yo'lga qo'yilsa;

- Bo'jalak musiqa o'qituvchilarni o'zbek musiqa san'atimizni chuqur o'rgatish uchun maxsus adabiyotlar, dasturlar ishlab chiqilsa;

- Bo'jalak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini shakllantirish, mumtoz musiqamizga bo'lgan kasbiy va shu orqali manaviy-ahloqiy tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari: pedagogik-tajriba sinov ishlari, ijobiy mashq, savol-javob, pedagogik-psixologik tahlil.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asoslari: Prezidentimiz asarlari, farmonlari, buyruqlari. "Talim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", musiqashunos, maqomshunos, folklorshunos olimlarning fikrlari, maqolalari, bu borada mavjud mumtoz musiqa san'atini o'rganishga oid adabiyotlar, pedagog-psixolog olimlarning maqola va risolalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy ahamiyati shundaki, o'zbek umutoz musiqasi misolida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yaxlit tizimda o'rganilib yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan g'oya, fikr-mulohazalar, amaliy-taklif va tavsiyalar - madaniy-ma'rifiy, musiqiy-pedagogik va san'at sohasiga ixtisoslashtirilgan o'rta-maxsus va oliy ta'lim dargohlarida dars berish jarayonida bir qator o'quv kurslari ish rejasiga bevosita kiritilib, ilmiy manba sifatida unumli foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibiy qismi: Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va nota ilovalaridan iborat.

I-BOB. O'zbek xalq musiqa madaniyatining tarixiy-nazariy asoslari.

1.1. O'zbek xalq musiqa merosining vujudga kelishi.

Jamiyatimiz kelajagi yoshlar bilan. Ularni kasb-hunarga o'rgatish, dunyoviy ilmlarni singdirish bilan bir qatorda baodob va kamtarin, ochiq yuzli, didli, pok qalbli va albatta, yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Inson madaniyatining muhim bo'lagi sanalgan estetik madaniyatning poydevori esa umumta'lim maktablarida qo'yiladi. Bu borada ko'plab fanlar qatori musiqa darslarining imkoniyatlari naqadar beqiyos. Zero musiqa san'ati o'ziga xos bir olam. U mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar olami, ajib tuyg'ular va hissiy kechinmalar olami. Musiqa san'ati voqyelik va hayotiy kechinmalarni o'ziga xos badiiy obrazlari orqali ifodalaydi, tinglovchining yurak-qalbi, his-tuyg'ulariga ta'sir etish orqali unda turli qobiliyatlarni rivojlantiradi, ongi va tafakkurini o'stiradi, voqyelik va hayotni yanada kengroq va chuqurroq idrok etishga yordam beradi.

O'tmishimizga bir qadar nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hayotida jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkir-allomalar, o'z davrining eng ilg'or kishilari hayotida, ularning ijodi, izlanish va qarashlarida alohida o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asr davriga mansub bo'lgan va o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Hayyom, Kavkabiy, Changiy kabilarning ijodlari fikrimizning yorqin misolidir. Jumladan, Forobiy o'zining ko'p asarlari qatori "Kitob al-musiqiy al-kabr" (Katta musiqa kitobi) bilan ham mashhurdir. Unda musiqa san'atining tarixi, rivojlanish qonuniyatlari, musiqashunoslikning ilmiy va nazariy masalalari yoritilgan bo'lsa, "Ihso ul-ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi) asarida esa musiqaning insonga ta'sir kuchi quyidagicha ta'riflanadi: "Bu ilm o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini mukammal qiladi, muvozanatda bo'lgan kishilar xulqini esa muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Tana kasal bo'lsa, ruh kasal bo'ladi, tana

to'siqqa uchrasa, ruh to'siqqa uchraydi. Ovozlarning, ya'ni ohanglarning ta'siri bilan esa ruhni, binobarin, tanani sog'aytiriladi".

Buyuk tabib Ibn Sino ma'lumotlariga qaraganda, bemorlar yoqimli musiqa ohanglari yordamida mulohaza qilingan. Uning ta'kidlashicha bolalarda go'zal san'atga bo'lgan moyillik va ehtiyojni shakllantirish qanchalik barvaqt boshlansa, shuna foydali. U o'zining "Ash shifo" kitobida yozadi: "Kichik yoshdagi bolalar organizmi uchun foydali vositalar qatoriga badan tarbiya bilan bir qatorda bolani allalash vaqtida kuylanadigan qo'shiq va musiqa kiradi. Bola shu ikki narsani o'zlashtirishiga qarab unda jismoniy mashqlarga va musiqaga nisbatan moyillik tug'iladi, bularning biri tanga, ikkinchisi qalbgaga taaluqlidir".

Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda takidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi.

Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda takidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi.

Ahloqiy tarbiyada san'at va adabiyotning buyuk roli insonning butun hayoti jarayonida davom etadi. Bu o'rinda san'atni biror maktab fani yoki biror darslik bilan almashirib bo'lmaydi.

Abdurahmon Jomiy o'zining "Musiqaga haqida risola"sida maqomlar haqida fikr yuritib, har bir maqom sho'basining kishi ruhiga ta'siri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yurgazgan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Majolisun nafois" va "Mahbub ul-qulub" asarida musiqa ilmi, uning insoniy kamolotida tutgan o'rni, musiqa va go'zallik tarbiyasi, o'tmish va o'z davrining yetuk san'atkorlari – musiqashunos, bastakor va hofizu-mashshoqlar haqida atroflicha ma'lumot beradi.

Fitrat, Muqimiy, Hamza, Qori-Niyoziy, Chustiy, Turob To'la, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, musiqa naqadar nafis san'at ekanligi, uning she'riyat bilan doimo hamohangligini, bu san'atni inson ruhiga madad berishdek, uni ulug' ishlarga chorlashdek ta'sir kuchiga ega ekanligini tarannum etilganini ko'ramiz.

Avvallari Respublikamiz umumta'lim maktablarida olib borgan kuzatuvimiz, ahvolni o'rganishdan to'plagan ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-yoshlarda umuman san'atga, xususan musiqa darslariga nisbatan istak va qiziqish pasaygan. Yoshlarda milliy musiqa merosimizni o'rganishga o'ziga xos loqaydlik mavjudligi, estetik hissiyot, estetik did, estetik ehtiyoj masalalari ko'ngildagidek emasligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Amaliyotdagi bunday holat quyidagi obyektiv va subyektiv sabablarga bog'liq: uzoq yillar mobaynida o'zbek maktablarida musiqa ta'limi tizimida mahalliy millat farzandlariga tushunish jihatidan muncha notabiiy bo'lgan yevropa musiqa madaniyatini singdirish zo'rma-zo'raki, yozilmagan qonunlar asosida amalga oshirib borildi. O'zbekiston diyorida o'zbek farzandlari ona allasidan qon-qoniga singgan ota-bobolarining merosiy san'atiga har tomonlama va chuqur o'rganish imkoniyatidan chegaralanib qoldilar:

- turli sabablarga ko'ra respublikamiz maktablari va ayniqsa qishloq maktablari yuqori bilimli, mahoratli o'qituvchi kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlanmadi;

- o'zbek maktablari musiqa darslari bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, dasturlari bilan to'liq ta'minlab berilmadi;

- ko'p hollarda fan o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratlari yetishmasligi sababli, yohud bu ish o'z kasb egalariga topshirib qo'yilishi oqibatida darslar sifatsiz o'tkaziladi, dars orqali o'quvchilarda estetik idrok, estetik his-tuyg'u uyg'otish, musiqiy-estetik madaniyatni shakllantira borish ishi e'tibordan chetda qoladi va h.k.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston maktablarida amalga oshirib borilayotgan musiqiy-estetik tarbiya o'zining to'liq mazmuni bilan qayta ko'rib

chiqilishiga, ilmiy-nazariy va zamonaviy uslub vositalari bilan ta'minlanishiga yaqqol muhtojlik sezadi.

Prezidentimiz I.Karimov takidlagandek «Xalqimiz madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manba bo'lib xizmat qilgan».

Darhaqiqat inson turmushini qo'shiqsiz, musiqamiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at qo'shiqlarga faqatgina ma'naviy oziq berib qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim rol o'ynaydi. Musiqa san'atining ahloqiy – estetik tarbiyadagi o'rnini to'g'ri xis etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini keng targ'ib qilish kerak. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida zarur zamindir. Bu zaminda xalqimiz yaratgan qadimiy navolardan tortib, mustaqillik davrida bastakorlar tomonidan ijod qilgan san'at asarlarigacha, tabiatning gultoji sanalgan insonning ahloqiy go'zalligi uchun, hayot tarzimizga yot bo'lgan illatlarni fosh qilish uchun xizmat qiladi. Musiqaviy tarbiyani ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan musiqa merosini ya'ni xalq qo'shiqlarni atroflicha o'rganishdan boshlash kerak.

Surunkali feodal urushlari xalq boshiga bitmas – tunganmas kulfat keltirdi. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyliklarini yo'q qilib yubordi. Qadim zamonlardan boshlab chet el bosqinchilari O'zbekiston madaniy boyliklariga, savdo va hunarmandchilik markazlariga maxliyo bo'lib quv tikib kelganlar. Uning mehnatsevar va botir xalqlarini o'zlariga bo'ysuntirib olish uchun ko'p urushganlar. O'zbekiston xalqining Eron bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi, grek – makedon armiyasiga qarshi kurash, Aleksadr Makedonskiy. Arab istilochilariga qarshi kurash, mug'ul – tatar istilochilariga qarshi kurash bunga misol bo'la oladi. Ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari, qaxramonlariva fidoyiliklari xalq og'zaki ijodidagi afsona va qissalarda o'z aksini topgan. Mashxur adib Mirzakarim Osimning «Shiroq», «To'maris», «Iskandar va spitamen», «Temur malik», «Maxmud Tarobiy», «Jaloliddin Manguberdi» asarlari bunga misol bo'la oladi. O'zbek xalqining chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan vatanparvarlik kurashini birgina «Shiroq»

obrazi orqali ko'ra olishimiz mumkin. Birgina Shiroqning o'zi yengilmas Eron shoxi Doro 1 boshchiligidagi katta lashkarni tor – mor qilgan. «Eron sarkardasi shoxlar ustiga yurish qilib, ularni tor – mor etishni xayolidanchiqarib tashlagan, u faqat qo'shiqning xalokatdan qutqarib qolishni o'ylaydi.

Shiroqning o'lmas qaxramonligi haqidagi qissa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda abadiy xaykaldir. Yoki Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun g rivoyat va xabarlar islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan, darajada yashirish qoldi. Keyin Qutayba ibn Muslim al Voxidiy xorazmliklarning kotiblarini xalok etib, bilimdonlarni o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz, qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga tayanadigan bo'ldilar. Arablarning qadimiy Saroy davrlardagi solingan suratlarining, ayniqsa odam rasmlarining ko'zlari o'yilib, bo'yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi hamda Varaxshadagi rasm – mashqlar buzib yuborilganligi, oyuod shahar va qishloqlarni xarob qilganliklari bunga yaqqol misoldir. «Garchi Abu Rayxon Beruniy afsuslanib, Xorazm yozuvi va tilini biladigan kishilar qolmaganligini qayd etgan bo'lsada, olimlar va tadqiqotchilarimizning izlanishlari natijasida, Xorazm yozuvi va alifbosi aniqlandi. S.P.Poletov boshchiligida o'tkazilgan arxeolog tekshiruvlar natijasida ter iva yog'och taxchalarida Xorazm yozuvida yozilgan yuzdan ortiq hujjat topildi. Xorazm yozuvi Suriyaning qadimiy aramey yozuviga o'xshar ekan. Arxeologik qidiruvlr natijasida topilgan Xorazm yozuvlari arab bosqinchilarining vaxshiyona yozuvchiliklarni oqlay olmas edi. Albatta shu davrlarda xalq madaniyatining ko'plab namunalari xonavayron bo'ldi, xalq musiqasining go'zal namunalaridan ba'zilar unutilib ketdi». Ayniqsa mug'ullar istilosi davri 13 asrda, yirik shaharlar bular Samarqand katta vayronagarchilikka uchragan davrda madaniy hayot susaydi. Faqatgina Temur xukumdorligi davrida O'rta Osiyo feodallarning o'zaro urushlariga chek qo'yildi. Temu rva temuriylar xukumronligi davrida arxitektura san'ati gullab yashnadi. Davlat poytaxti Samarqand, hamda Temurning ona shahri Kesh «Shaxrisabz» ulkan qurilishlar

bilan obodonlashtirildi. Madaniy hayot yuksaldi. Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U Saroy musiqa shakllari bayon qilingan musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madxiya xarakteridagi musiqa asarini ham ijod qilgan. Risolada tarje Petrov va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatilib o'tiladi. Ayniqsa Samarqanda xukumdorligi davrida fan va madaniyat gullab yashnadi. U shoir va musiqachilarning xomiychisi buldi. O'tmishda reaksion din peshvolari musiqa san'atidan bahramand bo'lishi taqiqlar, musiqa bilan shug'ullanishni gunoh ish deb xisoblashardi. Ayni paytda Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Navoiy, Mashrab, Bobur, Nodira g'azallari bilan aytiladigan maqomlarning ommalashuviga zo'r berib to'sqinlik qilashar edi. Chunki bu shoirlar asarlarida insoniylik, adolatparvarlik, xalqchilik kabi gumanistik motivlar kuylanar, go'zal yor, orombaxsh tabiat manzaralari tasvirlanardi.

Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini, musiqa inson kayfiyatini o'zgartirishdan tashqari uning butunlay ma'naviy qiyofasiga ta'sir etishini psixologik va estetik jihatdan asoslab bergan. Musiqaning inson xulqini mukammal qilishi haqidagi fikrlar musiqiy-estetik tafakkur tarixida juda katta yangilik bo'lib, unda musiqaning tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyatiga alohida etibor berilgan.

Ma'naviy-ahloqiy tushunchalarning mohiyatini his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy xulosasini chiqarib olishi lozim.

Ma'naviy-ahloqiy meyorlarni ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega.

Ma'naviy-ahloqiy meyorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilganidagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy hatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutishi kerakligini aniq ko'rsatadi.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan davatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida orttirgan tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalar mahsulidir. Xalqning har bir aytgan ijobiy gapini to'g'ri va uni uqib olmagan kishi hayotda pand yeyishi tabiiydir.

San'atning jamiyatda nechog'li kuchli emotsional psixologik ta'sir ko'rsata olishni anglab yetgan musulmon ruhoniylar asrlar bo'yi undan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanib keladilar. «Ruhoniylar olam go'zalligini illoxiyotning ruhiy portlashi» deb inson ruhining bu go'zallikning idrok eta olishini esa «Illoxiy» inson deb talqin qiladilar. Ularning fikricha, san'at asarlarining vazifasi xissiy obrazlar vositasida mumin – musulmonlarning xudoga bo'lgan e'tiqodini mustaxkamlashdan iborat. Manna shu kurashdan kelib chiqib ruhoniylar san'atini dinga xizmat qildirishga urinishgan.

Islom dini san'atni o'ziga xizmat qildirish bilan birga uning ba'zi turlariga, masalan rassomlik, musiqa va qo'shiq san'atiga taqiqlar kiritdi. U odam tasvirini va xaykal ishlashni, jonli mavjudodni tasvirlashni qat'iyannan man etdi. Buni Farg'onalik Fozil Ali Vaxob o'g'lining san'at haqidagi savodiga bergan javobidan anglash qiyinemas. Bu javobnoma «Ixlos» jurnalining 1915 yil 21 sonida bosilgan bo'lib, quyida bir parchasini aynan keltiramiz. «Ma'lum bo'lgaykim, tagganiy, ya'ni sado, nagma va hofizlik mutlaqo xaromdir. Xoh tanburda, xoh dutorda va rubob va surnay va ko'shnay va childirma, karnay va garmon, gramafon – shunga o'xshash olotlar birga bo'lsin va xox ovoz birla bayot va oshiqona g'azallarini, xoh

forsi yoki turki bo'lsin shunga o'xshash o'yin –kulgi hammasi xaromdir», - degan ta'rifdan bila olishimiz mumkin.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik sanoatining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik sanoati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, sanoatkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik sanoati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz sanoatkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdah) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg».

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida

shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoo», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axlo-qiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan xoli emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh Husayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi «Panjgoh» maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' neomat sifatida ardoqlanadi.

Xalq sanoatining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov: «Milliy musiqa sanoatimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir», - deb ta'riflagan ekanlar. Ustozning bu so'zlarida katta ma'no yotadi. Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo'nalishi dostonchilik sanoati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi. Tarixiy manbalarga murojat etadigan bo'lsak musiqiy madaniyatimiz uzoq tarix bilan bog'langanligini guvohi bo'lamiz. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatura ko'rinishidagi shohlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligimizning sadolari asrlar osha bizga yetib kelganligidan dalolat beradi.

Maqomlar – kuy va qo'shiqlar cho'qqisidir va ularning tarixi qadim madaniyatimiz tarixining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Ularning tarixi eramizdan oldingi ming yilliklarga borib taqaladi.

Maqomlar ohang, qo'shiq, g'azal va shehriyatimiz o'tmishdan hikoya qiluvchi ohanrabo, mungli qo'shiqlar qomusidir. O'tmishda maqomlar avloddan-avlodga, otadan-o'g'ilga, onadan-qizga og'zaki usulda o'tib kelgan meros hisoblangan. "Avesto" kitobidagi "Gah, "Gat", "Xat"lar, Madhiyalar, "Yasin", "Chilli yosin" – qirq alqov kabi dalillar, Oqchaxon, Hazorasp, Tuproqqalha, Chag'oniyon, Termiz, Kampirtepalardan topilgan "Chang chalayotgan ayol", "Suyak bilan bezatilgan nay", shaxmat donalari, kiyik terisi qoplangan musiqa asboblari musiqa madaniyatimizning noyob namunasi - maqomlarning ibtidosi deb baholashga to'la asos bo'la oladi.

Maqomlarning ilk vatanlaridan biri Xorazm hisoblanadi. Vohadagi maqomlar soni 12 ta va ulardagi kuy va qo'shiqlar soni 360 tadir. Xorazm maqomlari tarixiy taraqqiyot jarayonida 5 marta rivojlanish va turg'unlik bosqichlarini boshidan kechirgan. Taxminan "Avesto" yaratilgan davrda

shakllana boshlangan maqomlar Mahmudshoh hukmronligi (XI asr) davrida to'laqonli sanhatga aylangan. Sharq musiqa ilmining allomalari Al Kindiy, Ibn Sino, Farobiy, Chag'iniy, Jurjoniyy kabi olimlar, shoirlar va mashshoqlar yilning har oyiga, har bir kunu va tuniga bag'ishlab kuy bastalaganligi haqida yozganlar. Buni IX-XIV asrlarda Xorazmga tashrif buyurgan arab sayyohlari Yoqut Hamaviy, Ibn Rusta, Ibn al-Haysamiy kabi sayyohlar ham qayd etganlar. Xususan, arab sayyohi Yoqut Hamaviy: "Jurjoniya eli o'z maqomlarini behad qadrlaydi. Mamlakat poytaxti Gurganjda musiqa asboblari yasab tirikchilik qiladigan mahallalarni o'z ko'zim bilan ko'rdim,"-deb guvohlik beradi.

Darvesh Ali Chang'iyning "Musiqai risola" nomli kitobida Xorazmda cholg'u asboblaridan dutor, rubob keng tarqalganligi qayd etiladi. Mazkur fikrning to'g'irligini 1923 yilda rus bastakori V.A.Uspenskiy to'la isbotlab bergan. Uning rahbarligida Buxoroda ishlayotgan ekspedisiya ahozolari "Xorazm musiqa xati"ni qo'lga kiritishgan va u XII asr boshlarida xorazmshohlar mamlakatida yaratilgan, degan xulosaga kelingan.

A.Navoiy musiqani va uning ijtimoiy hayotidagi o'rnini yaxshi tushinar edi. Uning fikricha musiqa ma'noli, ta'sirli bo'lib, xalq hayoti bilan mustaxkam bog'liq bo'lganligini uqtirdi. Shoir o'zi yaratgan qaxramonlarning ruhiy xolatini ifodalalar ekan ishq va go'zallikni musiqa asbobi sadosi bilan, qushlar qo'shig'i bilan qiyoslaydi. A.Navoiy «Hamsa» da va boshqa asarlarda sozandalar, hofizlar va raqqosalar ishtirokidagi ziyofatlar tasviriga katta o'rin beradi. Shoir xalq qo'shiqlarini yaxshi bilgan va qadrlagan edi.

Navoiy «Hamsa» ning oxirgi dostonida Iskandarning to'yi munosabati bilan soxiyga murojat etib, «yor – yor aytadi.

Mug'aning to'zib chinga vaznida chang,

Nao chokii, xay, xay o'lan, jon o'lan.

Desang senki: jon qardosh yor-yor,
Men aytayki: mung'ul boshim yor-yor.

«Hamsa» 778 bet.

Ruhoniylar kuy va qo'shiqning dindan qaytaruvchi ta'siridan qattiq qo'rqishganlar. Chunki kuy va qo'shiq yerdagi hayotning go'zalligi, shirinligi, rango – rangligini ifodalash orqali turfa quvonchlari va anduxlariga ega bo'lgan real hayotning timsoli edi. Ruhoniylarning fikricha bu dunyoga xaddan tashqari mehr qo'yishi, narigi dugyoga ishonchni kamaytiradi deb qo'rqishganlar. O'rta asrning buyuk riyoziyotchi, faylasuf va munajim oilimi Umar Xayyom din targ'ibotchilarning quyidagi nazariyalarni oshkora qoralaydi. Odamlar yashaydigan bu olamdan boshqa odam bormi degan savolga yo'q deb javob beradi. Ularning narigi Dune, jannat, do'zax haqidagi fikrlarga ishonmaydi.

Masalan:

Do'zaxu jannatni Kim qurganu dil,

U Dune xabarni Kim bo'lgan e dil.

Qurquv umidimiz shulardan, ammo

Nomu nishonasiz kim bilgan, e dil.

Yoki:

Bilmadim, qorilgan chog'ida loyim,

Jannatmi, duzaxdan atalgan joyim.

Menga naqd bo'lsa bas yor, cholg'u sharob,

Nasya jannat bo'lsin senga xar doim.

U. Xayyom. Ruboiylar.

Yuqoridagi xur fikrlarni tartib qilish shoir uchun o'z davrining buyuk jasorati edi.

Din peshvolari xalqni besavod qilib, madaniy qashoqlik botqog'iga cho'ktirishga qanchalik urinmasin ijodkorlar musiqa san'atini rivojlantirish yo'lida qaytmaydilar. Tuxmat va tana toshlaridan boshi chiqmagan mashoqlar garchi bu benavolikka kun kechirib bo'lsada xalqimizning «Chapando'z», «Ufor» larini «Feruz», «Bayot» lazgi va mavrinolarini kimyoga o'tli iztiroblarni, jabr – zulm,

qashoqlik avj olgan davr nolasini o'ziga singdirib yuborgan. O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. 1932 yil oktyabr oyida «Oktyabryonka» kemasi bortiga o'lkamiz o'tmishining bebaxo boyligi rang – barang suratli tosh plita chiqarildi. Tabiat manzarasi ifodalangan zangori fonda uch musiqaga ayol tasviri chizilgan: ulardan biri arfa, ikkinchisi Lyutna, uchunchisi esa barabanga monand cholg'u asbobi ushlagan. O'sha davrlarda ham musiqaning inson hayoti bila hamdard va xamfikir bo'lgan ligi Boboraxm Mashrabning «Tanburga» bag'ishlangan g'azalidan bila olishimiz mumkin.

Setor demang, xoli dilimsurgichi tanbur,
Kunglim girixim – g'amlarini yozguchi tanbur.
Bir necha raqiblar so'zidan gamzada bo'lsam,
Xamdarda bo'lib og'ushima kirguchi tanbur.

Gar yor jamolini ko'rib pardaga solsam,
Nagmasi oni siynaxarosh etguchi tanbur.

Mashrabni tamom aqlin olib ul xunrez,
Jonimni yoqib siynaxarosh etguchi tanbur.

Eramizning dastlabki ming yilligidayoq o'zbek musiqasi va qo'shiqlari mashhur bo'lgan ko'rinadi. Chunki XI asrning mashhur tarixchisi va tilshunosi Maxmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'oturk» turk asarida juda ko'p cholg'u asboblari nomini tilga oladi. Ayniqsa o'z, kubiz, keng tarqalganligini alohida ta'kidlaydi. Olim bu davrda qo'shiq maqom ijro etishi ancha taraqqiy etganligini yozadi. Bu asarda qo'shiq termini birinchi marta «Qoshug'» shaklida berilgan bo'lib bu so'zining izoxi qasida ma'nosida berilganligini to'g'risida to'xtaladi, hamda ijrochilik masalalariga to'xtalib quyidagilarni yozadi: «koch – kuy, maqom ashula maxsus qoidaga muvofiq ovozni past – baland qilishi» deb ta'rif beradi. Devonu lug'ati turk 3, 114 bet.

Qo'shiqlar xalqimizning musiqa merosida salmoqli o'rin egallaydi. Qo'shiq san'atining oliy to'g'ri bo'lmish she'riyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Bu so'z ko'p ma'noli bo'lib, raqs kuyi, ashula sifatida ham qo'llanaveradi. Masalan mashhur o'zbek olimi Shayx Sulaymon Buxoriy «Lug'ati chitatoi» va turli usmoniy asaridagi turli qo'shiq raqs xavosida bog'langan kuy tarzida talqin qiladi. Musiqa va qo'shiq san'ta qadim zamonlardan keng tarqalibgina qolmasdan, balki ancha rivojlangan edi. Bu borada N.A.Dobrolyubovning qo'shiq haqida aytgan so'zlari diqqatga saboqdir. Qo'shiq deyilganda kuylash uchun ungay bo'lgan, oddiy turmush xodisalari ta'sirida to'g'ilgan, ichki xislarni o'zida ifodalagan kichikroq lirik asar tushuniladi. Bunday qo'shiqlar hamma xalqlarda bor.

Xalq o'z turmushidagi tantanali hammasini, xar qanday ishni, xar qanday xursandchilik va tashvishlarni qo'shiq bilan o'tkazadi. Bolalar belanchakda yotganidan boshlab, allalab aytgan qo'shiqlarni eshitadilar, o'sib, ulg'ayib xalq qo'shiqlarini o'rgana boradilar... Dexqon yer xaydagani borganida mehnatning mashaqqatini o'z qo'shig'i bilan yengillashtiradi. Dexqonlar jazirama dolzarb paytlarda o'roq urushiga kirishganlarida buncha ham ular orasida qo'shiq yangrab, og'ir mehnat mashaqqatini yengillashtiradi. Ular kuzatib qo'yishni, g'alla o'rimi bayramini ham qo'shiqlar bilan o'tkazadilar. Qishloq axolisining barcha ijtimoiy mehnati qo'shiq bilan o'tadi, uning oilaviy turmushda ham qo'shiq unga hamisha yuldosh. Yigit o'ylanmoqchi bo'lganida, unashish paytida, qizlar majlisida, nikox to'ylarida, manna shularning hammasida shu holatlarning o'ziga atab to'qilgan tayyor qo'shiqlar hamisha yangrab turadi. Oila ba'zan xayrlashishni og'ir paytlari kelganda, on o'g'lini, Xotin erini kuzatayotganida nola, fig'on va qo'shiq yangraydi. Odam o'lganida ham uning tepasida ma'yus motam qo'shiqlari paydo bo'ladi. N.A.Dobrolyubovning bu sizni o'zbek xalq qo'shiqlarining xarakterini belgilashda ham tatbiq qilish mumkin. Ko'plab o'zbek xalq qo'shiqlari ham yuqoridagi fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. O'zbek xalq qo'shiqlari shunchalik ko'p va xilma – xil, uning barcha namunalari xali atroflicha o'rganilishi kerak. Xalqimizning ilhombaxsh qo'shiqlarini maxorat bilan ijro etgan san'atkorlar

yaratgan musiqalarini to'plash va o'rganish qdim zamonlardan boshlagan edi. XVIII asrda yashagan Darvish Alining professor A.A.Semenov tadqiq etgan mashhur tarkatida cholg'u asboblarning mukammal ro'yxati, ularning kelib chiqishi haqidagi rivoyat va afsonalar ijodi hamda musiqiy asarlar hamda qiziqarli ma'lumotla bor. Xalq musiqiy ijodi ya'ni qo'shiqlari bilan tanishar ekanmiz inson haqidagi falsafiy qarashlar, urf- odatlar, marosimlar, samimiy muhabbat va do'stlik kabi estetik ideallar bo'lganini ko'ramiz.

Yevropa mamlakatlarida musiqaning qudratli tovushlari ta'siri ya'ni asabga kuchli ta'sir etish imkoniyatlaridan cherkovda diniy maqsad uchun foydalanilgan. Cherkovning musiqiy asarlari ruhiy tushkunlik, ma'naviy moyillik kayfiyatini ifodalar, tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar sababini tangrining xohish irodasiga bog'lab tushuntiradi. Bu asarlar hayotiy, falsafiy teran va mazmunan barkamol xalq san'atidan tubdan fark qiladi. Barcha cherkov musiqalari odamni pessimizm ruhida tarbiyalaydi, ma'naviy tushunish kayfiyatlar uyg'otadi. Jahon musiqa madaniyatimiz buyuk talantlaridan biri bo'lgan, noyob talant soxibi I.S.Baxning hayotbaxsh asarlari o'zi triklik paytida tan olinmadi. Chunki ulug' nemis kompozitorining asarlari hayotni realistik tasvirlar, g'oyaviy mazmundor va insonparvarlik tartib qilishi bilan cherkov musiqasidan tubdan farq qiladi. Uning ijodining butun dunyoga tanilishida nemis xalq qo'shiqlarining ta'siri ijobiy bo'ldi. Shunday ekan, xalq musiqa merosi xar bir millat professional san'atining rivojlanishi uchun ham tub manba bo'ladi deb xulosa chiqirish mumkin. Kompazitorlarimiz xalq musiqa san'atini ijodiy o'rganishi natijasida o'zbek hazinasida bebaxo dur bo'lib qo'shilgan san'ati asarlari vujudga kelgan. Go'zallika tashnaliq sezgan inson qalbidan, yurak turidan o'rin olgan qo'shiqlar kompazitorlar ijodining qashllanishida fundamental asos bo'ldi. Rus klassik musiqasining eng buyuk asarlari xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan. M.I.Glingka, Balakarev, Rimskiy Korsakov, Chaykovskiy iste'dodli qalb egallari poyonsiz rus zamonida maydonga kelgan qadimiy qo'shiqlardan ilhomlanib hayotbaxsh operalar, simfoniyalar va kuy qo'shiqlar yaratishdi. Xususan M.I.Glinkaning «Ivan

Susanin», «Ruslan i Lyudmila» operalari «Kamarinskaya» simfonik fantaziya rus xalq musiqa merosi hazinasida haqiqiy o'rin egallagan.

Bundan tashqari M.A.Balakirovning uch rus qo'shig'i asosida yozilgan uvertyurasi shular jumlasidandir. Chaykovskiyning 1 va 4 simfoniylarida, ularning turli cholg'u asboblari uchun yozilgan birinchi kvartetida: hamda N.A.Rimskiy Korsakovning «Sadko», «Snegerochka», «Sarskaya nevesta» opreallarida va boshqa musiqa asarlarida xalq kuylari jaranglaydi.

Kompozitor «Musiqani xalq yaratadi, biz kompozitorlar rang va sayqal beramiz» deganida tamomila haq edi. Shuni tasdiqlash mumkinki, xar bir xalqning qo'shiqlarida shu xalq xarakterining asosiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlari kompozitorlar ijodi uchun abadiy ilhombax manba bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Qo'shiqlar borasida Lermontov, Turshenev, Chexov, Gorkiylar ham qanchadan – qancha ilhombaxsh satrlar bag'ishlaganlar. Insonga ma'naviy oziq berib, uning tarbiyaviy kamolotlariga erishuvidamuxum ahamiyatiga ega bo'lgan qo'ishq va musiqiy asarlar lazzatidan bahramand bo'lmaslik xissiy baxt – saodatning bir parchasini yo'qotishdir. Xalqimiz yaratgan qo'shiqlar g'oyaviy buquvvatligi va tematikasi jihatidan xilma – xildir.

Buyuk Alisher Navoiy aytganidek, o'rta asrlarda Xorazm maqomlari o'z vatanidan uzoqda qanot yoydi va sayqal topdi. O'z zamonasining shoir va mashshoqlari tufayli Xorazm maqomlari musulmon olamidagi barcha saroylarga kirib bordi, to'y va bazmlarda, sayl va diyralishmalarda qayta-qayta ijro etildi. 1934 yilda Xorazm musiqa merosini notaga yozib olish uchun kelgan Ye.Romanovskaya quyidagicha fikr bildirgan: "Bundan taxminan 130 yil avval Niyozxo'ja ismli sozanda Buxorodan Xivaga kelgan va maqomlarni o'rganib ketgan." ("Xorazm klassik muzikasi", Toshkent, "O'zdavnashr, 1939 yil, 10-11-betlar").

XIX asrning so'nggi choragi Xorazm maqomlari rivojlanishining yangi bosqichi bo'ldi. Ushbu savobli ishda Feruz taxallusi bilan g'azallar bitgan bastakor – Xiva xoni Muhammad Rahimxoni Soniy (1944-1910)ning buyuk xizmatlari

borligini alohida ta'kidlash lozim. Uning o'zi "Rost" maqomi cholg'u qismiga "Chor usuli Feruz" va yana 14 yangi kuyni bastalagan. Xon o'z atrofiga Ogahiy, Komil, Bayoniy, Avaz, Rojiiy, Tabibiy kabi yetuk ijodkorlarni to'plab, maqomchilar dastasini tuzgan. Xonning yaqin maslakdoshi Komil Xorazmiy "Rost" maqomining cholg'u yo'liga o'zining "Murabbai Komil" kuyini ham bastalagan va Xorazm maqomlarini nota qog'oziga tushirish asosida – "Tanbur chizig'i"ni kashf qilgan. Shu tariqa Xorazm maqomlari maxsus musiqa yozuvlariga abadiy muhrlanib qolgan.

XX asrning 70-yillarigacha Xorazmda Muhammad Yoqub, Harrot devon Qurbon o'g'li, Qalandar Jumaniyoz o'g'li, Xudoybergan Muhrkon, Sayid Fayzullo, Hasan Kalot, Matfano Xudoyberganov, Hojixon Boltayev kabi ustozlar faoliyat ko'rsatganlar. Xorazm musiqa sanhat jonkuyari va targ'ibotchisi sifatida tanilgan Matniyoz Yusupov buxoro va Xorazm maqomlari orasidagi farqlarni atroflicha tahlil etgan va "Xorazm maqomlari" nomli 3 jildlik kitob yaratgan. Unda taniqli sanhatkorlar – Matfano Xudoyberganov, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Jumaniyoz Hayitboyevlardan yozib olingan bebaho musiqiy meros maqomlar va notalar jamlangan.

Xorazm "Maqom tinglab mazza qilay desangiz, to'yga Hojixonni, olomon to'plab obro' olaman desangiz, falonchi artistni chaqiring!"-degan ibora bor. Joiz bo'lsa, maqom sanhati darg'asi bo'lgan Hojixon Boltayev haqida ikki og'iz so'z aytsak. 1937-1952 yillarda maqom ijrochilari tahqib ostiga olingan bir davrda ayni kuch-quvvatga to'lgan Hojixon aka ham taqdir taqazosi bilan qamoqqa olingan. Avaxtada u Jo'raxon Sulstonov, qoraqalpog'istonlik Tursunboy baxshi kabi sanhatkorlar bilan tanishgan. Turma boshlig'i mahrifatli kishi bo'lganidanmi, Hojixon va Jo'raxon hofizlarga tutqunlikda ham qo'shiq aytishga ruxsat bergan ekan.

Yillar o'tib, Hojixon Boltayevning maqomi o'zbek xalqining buyuk sanhatkorlari Yunus Rajabiy, Mahmurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Jo'raxon Sulstonov, Karim Zokirov, Mulla To'ychi Toshmuhammedovlar qatoridan o'rin

oldi. O'zbekiston xalq artisti Muyassar Razzoqova endigina sanhat olamiga kirib kelayotgan davrida Hojixon Boltayevdan oq fotiha olganligini eslaydi.

Xorazm maqoschilik sanhati sohasida o'chmas iz qoldirgan to'rt sanhatkor – O'zbekiston xalq artisti H.Boltayev (1904-1987), O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozov (1917-1975), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nazira Yusupova hamda Olmaxon Hayitovalar o'ziga xos ijro uslubiga ega, betakror ovoz sohiblaridir. Hukumatimiz xalq hofizlari H.Boltayev va K.Otaniyozovlarni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi. Xonqa va Urganch shaharlarida ularning nomi bilan ataladigan uy-muzey va sanhat-musiqqa maktablari ishlab turibdi.

Xorazm maqom sanhati rivojiga munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan sanhatkorlar qatoriga haqli ravishda O'zbekiston xalq hofizlari Ro'zimat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Farhod Davlatov, bir necha respublikalar xalq artistlari unvoniga sazovor bo'lgan betakror talant sohibi Otajon Xudoyshukurov, Ortiq Otajonov, Bobomurod Hamdamov bugungi kunda shuhrat pog'onalaridan dalil ko'tarilayotgan Ravshan Matyoqubov, Og'abek Sobirov, Feruza Jumaniyozova kabi o'nlab ijodkorlarni faxr bilan kiritish mumkin.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab klegan. Hozirgi kunimizda bu qadriyatlarni, ya'ni ma'naviy tarbiyani yoshlarda shakllantirish dolzarb masaladir. Ma'naviy tarbiya o'zida bir necha jihatlarni qamrab olganki, uning hamma qirralarini kichik bir maqolada yoritish qiyin, shuning uchun biz ma'naviy tarbiyani kompleks vazifa sifatida qabul qilgan holda, uning bir qirrasiga – musiqiy ta'sir orqali yuksak insoniy his-tuyg'ularni shakllantirish masalalariga to'xtashni o'z oldimizga qo'ydik.

Moziydan bizning zamonamizga asrlar osha, avlodlardan ajdodlarga osha yetib kelgan, xalq tafakkurini va hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq, kuylar juda ko'p. Ularning har biri usul, ritmi vositasida his-hayajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatidan esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga majbur qiluvchi,

ta'sirchan kuchga egadir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz qadim-qadimdan e'tirof etib, uqtirib kelganlar. "Yo alhazar, ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi!" – deb xitob qilgan edi Forobiy.

Madaniy merosga to'g'ri yondoshish, undan unumli foydalanish ko'p yillar mobaynida e'tibordan chetda edi, o'quv yurtlarida o'rgatilmas fan sifatida qaralmasdi. Bu masalaga respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng e'tibor kuchaydi, dasturlar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar nashr etildi. Shulardan: H.Nurmatovning "Rubob sinf dasturi" va "Rubob darsligi" kitobi (1993 yil), A.Hasanovning "Musiqa va tarbiya" (1993 yil), o'zbek musiqashunoslari erishgan ilmiy izlanishlardan foydalanib yozilgan O.Ibrohimovning "O'zbek xalq musiqa ijodi" dasturi (1993 yil) va metodik tavsiyalarining (1994 yil), san'at va muallimlik ixtisosidagi o'quv yurtlari uchun mustaqil fan sifatida joriy etilishi ayni muddao bo'ldi. Lekin bu tadqiqotlar musiqa va qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, mazmuniga to'xtalish vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. Shu bois ko'rsatilgan savollarni o'z ichiga olgan uslubiy yo'nalishlar haqida to'xtalamiz.

Musiqa pedagogika fakultetlari talabalarini umumta'lim maktablariga o'qituvchilik kasbiga tayyorlar ekanmiz, quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib olamiz:

1. O'quvchilarni musiqaga muhabbat, qiziqish uyg'otish, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;
2. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Vatanga muhabbat, unga foyda keltirish, o'z burchini to'g'ri tushunish hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish. Ularning hayotga, o'qishga, mehnatga va go'zallikka intilish qobiliyatini, atrof muhitni idrok qilishda ziyraklik kabi xususiyatlarni rivojlantirish.

Musiqqa yoshlar diqqatini go'zallik, yaxshilik, insoniylikka jalb etishda katta ta'sir kuchiga ega ekanligini nazarda tutib, maktab hayoti qanday musiqqa ruhi bilan sug'orilganligiga ahamiyat berish zarur. Bolalar uchun tushunarli, ular tomonidan ko'p kuylanib turadigan kuy, qo'shiqlarni tanlash, ularda shu musiqqa asarlarini qayta-qayta tinglash istagini uyg'otish, har gal yangi taassurotlarga ega bo'lishlariga erishish kerak.

Bolalarga atalgan qo'shiq va kuylar bilan bir qatorda folklor qo'shiqlar, serjilo, serqirra ohanglarga boy bo'lgan o'zbek milliy cholg'u kuylari va mazmuni klassik qo'shiqlarini talabalarga o'rgatish bu asarlarning o'rta maktablarga kirib borishiga, o'quvchilarda bu san'at merosimizga ixlos, muhabbat uyg'otishga, uni hurmatlashga o'rgatadi.

Forobiy o'zining musiqqaga bag'ishlangan asarlarida o'tmishning musiqqa merosiga katta e'tibor berib har bir yetuk san'atkor uch narsaga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilishi lozim;
2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qodir va iste'dodli bo'lishi kerak;
3. Musiqqa san'ati haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin va xatolarni oydinlashtira olsin".

Bu o'g'itlar bugungi kunimizda ham o'z ma'nosini yo'qotmagan.

1.2. Sharq mutaffakirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to'g'risida.

O'rta asr mutaffakirlari va olimlari ham musiqa san'ati bilan ham keng mashg'ul bo'lishgan, jumladan Abu nasr Farobiy, Abu abduullo Rudakiy, Xorazmiy, Abu ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abduraxmon Jomiy, A.Navoiy va boshqalar ijodiga nazar tashlasak ular o'z ijodi davrida kishi qalbiga, xis – tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladigan musiqa san'ati bilan keng mashg'ul bo'lishgan, hamda musiqa san'atining Amaliy va nazariy qismlari to'g'risida buyuk asarlar ijod qilishganki, bu asarlar hozirgi vaqtda ham, jahon musiqa ta'lim – tarbiyasida va madaniyatida olamshumul ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jumladan O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim al Farobiyning musiqaga bag'ishlangan «Musiqa haqida katta kitob» asari cholg'u madaniyatimiz tarixining o'qilmagan saxifalarni birmuncha oydinlashtirish imkonini beradi. Al Farobiy bu asari 1935 yilda R.D. Erlanjeni tomonidan fransuz tilida nashr etilgan. Kishi ruhiga, qalbiga, xis – tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladigan musiqa san'ati bilan shug'ullangan hamda uning nazariy va amaliy –tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida asar yozish o'sha davrda buyuk jasorat edi. «Musiqa haqida katta kitob» da musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishdan tashqari, O'rta asr Sharq musiqa san'atining rivojlanishida muxum rol o'ynagan rubob, nay, tanbur, ud, nog'ora va boshqa cholg'u asboblarning tuzulishi, ijro proisiplari haqida keng ma'lumot beriladi. Al Farobiy inson tovushiga taqlid qila oladigan cholg'u asboblarni muxum va zarur deb hisoblaydi. «Kishi ovozigga yaqin tovush chiqaradigan asboblari rubob, g'ijjak va duxovoy asboblardir: ular ovozga juda yaxshi taqlid qiladilar. Rubob va surnay ovozigga juda yaxshi taqlid qila oladi», - deb yozadi olim. Al Farobiy cholg'u asboblarning asosan ikki vazifasini ko'rsatib o'tgan: qo'shiqqa jo'r bo'lish va yakka holda ijro etish. Xalq musiqasidagi bu an'analar hozirgacha saqlangan. O'rta Osiyo musiqasining rivojlanish manbalari va xarakterli belgilari yaxshi izohlanadi. «Cholg'u musiqasi ashula jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning oralaridagi cholg'u qismini

hosil qiladi. Bu esa ashulachiga deb beradi. Ayni vaqtda ular ashulaning ovozi yetmaydigan joylarni boʻrtirib, vokal musiqani boyitadi», - deyiladi asarda. Farobiyning inson tarbiyasida musiqaning ahamiyati borasidagi fikrlari ham maqtovgʻa loyiq. Buyuk Sharq mutaffakirlari yozishicha, inson jamiyatida yashab kamol topadi. Uning baxt-saodati, xulq-atvori, maʼnaviy qiyofasi shu jamiyat quchogʻida shakllanadi. Shuning uchun oiladagi ijobiy muhit ijtimoiy hayot oqimidagi bir yoʻnalish deb qarashi lozim. Bu yoʻnalish jamiyatda Yangi kishi tarbiyalashning fundamental asosidir. Musiqiy madaniyatdan bahramand boʻlish inson tarbiyasining ajralmas qismidir. Chunki musiqaviy tarbiya odamni qalban pok va goʻzal, sogʻlom fikrli, badiiy didli hamda fikrlash qobiliyati oʻtkir qilib oʻstiradi, shu bilan nafosat va goʻzallik olamiga chorlaydi. Ulkan tarbiyaviy imkoniyatga ega boʻlgan oʻzbek xalq musiqasi merosining zarchashmalari tarixan olis zamonlardan bogʻlanib, ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ilk musiqasi namunalari esa inson ongining rivojlanishi natijasida tabiat goʻzalliklardan ilhomlangan qadimgi odam tomonidan mehnat vujudga kelgan.

Umumtaʼlim maktablarida musiqasi tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, oʻqituvchi oldida oʻquvchilarni oʻz darsiga, musiqaga qiziqish va havas uygʻotish vazifasi turadi. Maktabda, ayniqsa boshlangʻich sinflarda qoʻshiq aytish, musiqasi tinglashga nisbatan paydo boʻlgan qiziqish va moyillik, asta-sekin yoshlarning sanʼatga boʻlgan ijobiy munosabatlari va qolaversa ehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim oʻrin tutadi.

Musiqasi darsi oʻz tabiatiga koʻra sanʼat darsidir. Uni rang-barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir oʻqituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. “Bolalarni sanʼatga oʻrgatish nihoyatda murakkab,-deb takidlaydi taniqli kompozitor D.B.Kabalevskiy, - hamma

murakkablik shundaki, ularni emosional tarzda qiziqtirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas".

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini taminlash alohida ahamiyatga molik.

Musiqani tushunish, uning orombahsh ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emosional his-tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Asarni ijro va idrok etishda his-tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, to'yinish va zavq olish ham shunchalik ongli va chuqur bo'ladi. Bu holatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero zerikarli va sokinlik holati sinfda jonli hissiyot holatini tashkil eta olmaydi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan asarlar repertuari bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni o'quvchilarning yoshlarga, qiziqishlari, bilim va ko'nikmalar darajasiga mos bo'lish, tematikaning rang-barangligi, g'oyaviy-badiiy sifati hamda pedagogik qimmati bilan belgilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mos keladigan o'tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining forma va mazmuni bilan go'zal va hayotbahsh, nafis va xushohang asarlar yangrashi lozim. Zero faqat mana shunday asarlargina o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg'ota oladi, axloqiy-estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlaridan keng va oqilona foydalanish darsni yanada qiziqarli va sermazmun bo'lishini taminlaydi, yosh ijrochilarda xalqimiz ijodiga, uning musiqa va qo'shiq san'atiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boradi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi.

O'quvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushunarli va qolaversa materiallarning rang-barang bo'lishligiga bog'liqdir. Musiqa asarlari, rang-barang ko'rgazmali qurollar, musiqa haqidagi qiziqarli fakt va ma'lumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan suratda

Hozirgi davr dunyodagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda.

«Avisenna» nomi bilan butun Dunyo mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham Ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' xakim emas. «Kito bash - Shifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalaridan biridir. Musiqa va kuyning paydo bo'lishini olim shunday izohlaydi: «Tabiatning o'zi odamlarga nutq ato qilgan. U shartli xarakterga ega bo'lib, xushomad qilganda, o'z tobeligini bildirganda yoki yalinganda tovush, mayinlashib, natijada sud ta'sirli chiqadi va o'z maqsadiga erishadi. Keyin taqlid qilish, ayniqsa odamlarga katta orom big'ishlaydi». Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya haqidagi dunyoqarashi va ilg'or g'oyalari faqatgina tabiiy fanlarga oid asarlariga emas, balki adabiy badiiy janrlardagi risolalarni ham o'z aksini topdi. Uning bu asarlarida musiqa san'atining insonparvarlik, rosgo'ylik, mehr – muhabbat, xursat hamda do'stlikka ta'siri masalalari o'rtaga tashlandi.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib, tinglar, dildan zavqlanardi. Shoir tantanali san'atkorlarga hamisha

g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. Musiqani sevmagan shoir qalbi xuvillagan chorbog', xazon bo'lgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir», - deydi Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarning moxiyatini yaqqol ko'rsatadi. Musiqa ilmi va san'ati haqida shoirning «Majolis un - Nafois» asarida atroflicha yoritilgan. Asarning 118 saxifasida Paxlavon Muxammad G'ushtig'ir haqida baxs ketganda, uni zamonasining shirinkamol va xushsuxbatlaridan biri ekanligi ta'kidlandi. Shundan keyin Navoiy «Musiqiy va advor ilmida davrning benazirdir» Deya qo'shib qo'yadi. To'rtinchi majlisda mashhur sozanda va hofiz. Hofiz Muxammad Sultonshox hamda dilrabo kuylari ila dillarni maftun qilgan mashshoq Ustod Qulmuxammad nomlar hurmat bilan qadamga olinadi. «Ustod Qulmuxammad – shibirgonliklar, deb yozadi Navoiy, - kichik yoshida g'ijjak cholar edi. Qobiliyat asari ul fanda andin ko'p zoxir erdi. Tarbiyatiga mashg'ul bo'lurdi... Ammo ud va g'ijjak va qubuzni asrida oncha kishi chol olmas». «Majolis un-nafois, Nafoiy asarlari, 12 tom, 139 bet. Navoiy tarbiyalangan oilaviy maxit adabiyot va san'at ixlosmandlaridan iborit edi. Bo'lajak shoirning qarindosh – urug'lari hamda ustozlari orasida mashhur xonanda va sozandalar, musiqa ilmining «benazar» bo'lgan. Shoirning o'zi e'tirof etishicha, «G'aribiy taxallusibilan g'azal bitgan Muxammad Ali ko'proqsozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidan ham xabardor erdi. Ma'lumki, G'aribiy Alisherning tog'asi bo'lgan va yosh shoir ko'p vao'tni u bilan birga o'tkazar, «ul xazratning iltifoti inoyati aning bila o'zlaridin ko'proq erdi». 12 tom, 66 – bet.

Xalq ta'limini yanada takomillashtirish jarayonining usul va vositalarini yangicha tashkil qilishga alohida e'ttibor berilayapti. Hozirgi yoshlar madaniyatga, hayotga yengil qarashga o'rganib, tijoratga berilib

ketmoqdalar. Chet el ansambllariga taqlid qilish, tushunib-tushunmay xorijiy qo'shiqlarni aytish, milliy madaniyatimizga yengil yoki befarq qarashlar odat tusiga kirib qolishi bu sog'ada ishlovchilarga katta vazifa yuklaydi. Musiqiy boylıklarımız xazinası (kuy, qo'shiqlar, musiqa sozlari, ijro yo'llari, usullar, milliy bezaklar), durdona merosimiz ko'p yillar qarovsiz qolgani, hozirda alohida etibor berishni talab etmoqda. Bu sohada ko'plab ilmiy ishlar qilinishi, merosimiz yetuk xonandalar ijrosida qaytadan tiklanib targ'ibot qilinishi lozim.

Biror bir kuyni yoki qo'shiqni tinglaganda, uning nozik sadolanishida tarix aks sado berib turgandek tuyuladi. M.Qoriyoqubov, Yu.Rajabiy, M.Uzoqov, M.Karimov, M.Axmedov, O.Xotamov, yosh avlodlarga mansub M.Yo'lchiyeva, H.Rajabiy, R.Qurbonov – qo'shiqlari, T.Alimatov, M.Yunusov, A.Abdullayev, G'.Qo'chqorov, A.Ismoilov, O'.Rasulov, T.Rajabov – kuylari kishini lol qoldiradi. Eslaylik, "Munojot", "Soyai", "Chorgoh", "Ajam taronalari", "Cho'li iroq", "Surnay navosi", "Qo'shchinor", "Girya", "Tanovar", "Galdir", "Kuygay" va boshqalar tinglovchini befarq qoldirmaydi.

Ko'p ansambl rahbarlari, musiqa o'qituvchilari o'z talabalariga kuy, qo'shiq o'rgatishda ijro yo'liga, ijro mahoratini oshirish usullariga e'tiborlarini qaratadilar, bu muhim, ammo o'rganilayotgan asar mohiyatini tushunib, tahlil qilib, mazmuni, tarixi haqida bilim berishga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Suhbat, savol-javoblar yo'li bilan, o'rganilayotgan musiqa asbobi tarixi bilan tanishtirib olib borish, taniqli ijrochilar ijodi, erishilgan bugungi yutuqlar haqida ma'lumot berish o'z samarasini beradi. Qo'shiqni o'rgatish ishlari uslubiy jihatdan bir necha vazifalarga bo'linishi mumkin:

1. Tarixiy ilova;
2. Matn ustida ishlash;

3. Ohangni o'rganish; a) to'liq tinglash; b) qismlarni takrorlash; v) ijodiy yondoshish asosida sayqallab ijro etish.

Musiqqa ijrosini o'rganishda yengil asarlardan boshlash, masalan: "Do'loncha", "Olma atirjon", "Qarinavo" va shunga o'xshash kuylardan, qo'shiqlardan: "Bahor keldi", "Bozorga boraymi, qizim", "Charx", "Yor-yor" – lar, "Oq oydin kechalar", "Sev keladi loylanib" va boshqalar. Bunda albatta qo'shiq mazmuniga o'quvchi-talabalar e'tiborini qaratish kerak. Bu borada misol qilib "Suv keladi loylanib qo'shig'i"ni namuna sifatida keltiramiz. Bu o'zbek xalq qo'shig'i:

Eshigingda nelar bor?

O'rdak bilan g'ozlar bor.

O'rdak o'lsin, g'oz qolsin!

Dushman o'lib, do'st qolsin!-

deya xitob qilib, savol-javob tariqasida ijobot bo'ladigan tilaklarni uqtiradi. Asar mazmuni sodda yozilgan bo'lsa ham, keng ma'noni bildiradi. O'rdak bu misrada dushman ma'nosini, chaqimchi, ezma, yomonlikni avro ko'ruvchi sifatida aks ettiriladi, g'oz esa do'st, kishilarga yaxshilik istovchi, ertaklardagi ijobiy obrazni tasvirlaydi, shuning uchun dushman o'lib, do'st qolishining tarafdori. Shu kabi so'zlar bilan tushuntirib, savol-javoblar tariqasida o'tkazilgan suhbatlar kiyingi darsning borishi uchun ijodiy muhitni tayyorlaydi. O'quvchilarning bilim doirasi kengayadi, so'z boyligi oshadi, ijro qilinayotgan asarni to'laligicha yod olishga erishiladi.

O'zbek milliy qo'shiqlarini maromiga yetkazib kuylash, tinglovchining yuragiga ta'sir qildirish – bir san'at, u san'atdan bahra ola bilish ham katta iste'dod bo'lib qoldi. Shuning uchun keksa san'at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e'zozlash, oqibatli bo'lishni yoshlarimizga o'rgatish, biz o'qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O'qituvchi-ustozning mahorati o'z shogirdini har bir ishni bajarishga majbur etishida emas, balki, uni bu ishni

o'z xohish-irodasi bilan, tushunib, quvonch bilan bajarishga rag'batlashtirishdadir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

1. Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlardan keng foydalanish;

2. Ijodkor keksa avlodlarimizdan foydalanib qolish, ularning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak;

3. Maktab o'quvchilari bilan pedagogik amaliyot jarayonida musiqa darslarini tashkil qilishda quyidagi faoliyatlarga ahamiyat berish: maktablardagi musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarni uzviy bog'lab olib borish, unda musiqa maktablarida o'qiydigan o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini tashkil qilish; hozirgi kunda radio va televideniyaning musiqaviy eshittiruv, ko'rsatuvlari sifat darajasi oshganligini hisobga olib undan unumli foydalanish; o'quvchi-yoshlarning ijod ishiga jalb qilish uchun ularning yosh xususiyatlarini inobatga olib, tanlovlar o'tkazib borish, sahna mahoratini o'rgatish; tarix, san'at muzeylariga sayohatlar uyushtirish; milliy musiqa merosimizdan foydalanish milliy madaniyatga havasni shakllantirish va h.k.

Shu o'rinda musiqashunos olim Fitratning musiqa madaniyati va uning ma'naviyatga ta'siri haqida aytgan so'zlarini eslash joizdir: "... o'z musiqamiz, ham Ovro'po musiqani yaxshi bilib olg'an... talabalarimiz yetishkuncha, Ovro'po musiqa olimlarining yoradmlari bilan kuylarimizni notaga oldirishda Ovro'po musiqasining ohang usullarig'a ergashtirmayliq. Ovro'po ohang usullaridan ko'z yumub, kuylarimizning o'z ohangida qolishiga tirishaylik. Ovro'po ohang usullariga ergashtirib oling'an kuylarning etnografik nuqtasidan ahamiyatini yo'qotqanimiz kabi ularning o'zbekligini ham yo'qotqan bo'lurmiz".

Bu soʻzlardan hozirgi yoshlarimiz ibrat olsalar, oʻz ijodlariga tanqidiy koʻz bilan qarasarlar, ustoz-oʻqituchilar orqasidan ergashsalar madaniyatimiz yangi pogʻonaga koʻtarilar, jahon boʻylab qoʻshiqlarimiz, kuylarimiz taralar, maʼnaviyatimiz yanada boyib borardi.

Navoiyning kishilarni oʻz sanʼati bilan maftun qiluvchi zavq – shavq bagʻishlovchi hofiz va qoʻshiqchilariga, umuman musiqa sanʼatiga munosabati «Maxbub ul qulub» dagi «Mutrib va muganiylar zikrida» aytilgan yigirma ikkincha faslda yorqin tasvirlangan. «Koʻngil quvvati xushnavozdin, ruh kuni xushnavozdin. Xushxon mugaynidin dard axlining oʻti tezdur, agar maloxadi boʻlsa chol axliga rustaxe zdir. Xaar muganniyki, dormondanorok nagʻma chekar, aning zaxmasi zaxmlik yurakka korgʻaroq tegar. Otashin yuzluk muganniyki xalqdin muloyim surud chiqargay, xoll axlining qoʻygan bigʻridan dud chiqargay. Muloyim mutribki tab va faxm yor boʻlgʻay, odamiy koʻngli toshdin boʻlsa anga zor boʻlgay. Xususan, ham aytgay va ham chalgʻay, kungil mulkiga ne qoʻzgʻolonlarni solgʻay...» 13 tom, 23 bet. Bu soʻzlar musiqa sanʼatining estetik va sotsial-tarbiyaviy qimmatini beqiyos ekanligini anglatadi. Navoiy shu oʻrinda ham musiqani, ham oʻzini xor qilgan taʼmagir muganiylarni afsus – nadomat bilan tanqid qiladi. Xalq ijodiyotiga muhabbat qoʻygan Navoiy musiqaviy merosning mohiyatini anglay oldi, oʻz asarlarida bu sanʼat turining qudratli tarbiyaviy – estetik rolini toʻgʻri baxoladi. U xalq sheʼriyati va kuylarini oʻrganishiga, taʼlim olishga chaqiradi. Ongli mehnat jarayonida inson tafakkuri takkominlashdi va taraqqiy etdi. Bu esa inson qalbiga moyil boʻlgan qoʻshiqlar, kuylar, doston, ertak va raqslarning paydo boʻlishiga asos soldi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining “musiqqa madaniyati” darslariga kiritilgan qoʻshiqlar dasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni, oʻzligimizni, bayram va anʼanalarimizni, Ona Vatanimizga boʻlgan cheksiz tuygʻularni

ifodalovchi o'nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o'quvchilarda ijodiy faollikni o'stirishga xizmat qiladi.

Inson etiqod bilan tirik, etiqod bilan aziz va mukarramdir. Etiqodli inson jamiyatning ma'naviy pokligi, barkamolligi uchun kurasha oladi. Etiqodi mustahkam xalq o'zining dunyo madaniyati, pok insoniy munosabatlar tizimiga ega bo'ladi. Hyech qanday farovon turmush tarzi malum etiqodli ahloq meyorlari shakllangan jamiyatga qaror topadi, rivojlanadi.

O'quvchilarni xalq qo'shiq va kuylari orqali ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, bunda ularning yosh xususiyatlari, individualligini hisobga olish, musiqani idrok qilish, uni tahlil qilish va sintez qila olishga o'rgatish pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligiga bevosita bog'liqdir.

Xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish musiqaning boshqa janrlariga nisbatan qulaydir. Chunki xalq qo'shiqlari mazkur xalqning an'analari, rasm-rusumlarini o'zida ifodalaydi.

Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni shakllantirish sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Sharqning olamiga mashhur mutaffakiri Abu Nasr Farobiy musiqa nazariyasiga doir kitobiga so'ngi nuqtani qo'ygach, og'ir tin olib: «Yo alhazar! Ey, musiqa olami! Sen bo'lmaganingda olam ahvoli ne kechar ekan!» degan ibratimiz kalimani aytganda nimalarni o'ylagan bo'lsa. Alqissa buyuk tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lgan musiqa madaniyati xalq hayoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib ijtimoiy hayotning tasviri bo'lib keldi. O'zbek xalq qo'shiqlaridan uni ijod etgan xalqning bosib o'tgan yo'li, ya'ni tarixi, hayoti, inson haqidagi falsafiy tushunchalari, estetik qarashlari o'z aksini topgan. O'zbek xalq musiqa san'ati yoshlarni haqiqiy inson bo'lib yetishuvida, ularning ma'naviy kamolotga erishuvda o'zgacha badiiy – estetik zavq bag'ishlaydi. Shu boisdan o'zbek xalq musiqa madaniyati xalq tafakkuri va donishmandligini ajoyib badiiy hazinasidir.

II-BOB. O'zbek xalq musiqiy merosini o'rganishning o'ziga xos jihatlari.

2.1. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy didni shakllantirish asosidir.

O'zbek xalq qo'shiqlari tuzilish jihatidan sodda va oddiy bo'lib, musiqa ohanglari dilga yoqimli, ijro etish uchun xam, qulay bo'lib, qo'shiq poeziyasi ham ma'nodordir. Xalq qo'shiqlari o'zbek kompozitorlari o'zbek kompozitorlari ijodida asosiy o'rin tutib musiqa san'atining qaysi janri bo'lmasin ya'ni operadami, simfonik asarlaridami yoki estrada san'atidan salmoqli ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodini o'rganishga keyingi vaqtda jiddiy e'tibor berilmoqda, bu borada jahonshumul anjumanlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda, ya'ni 1978 yil oktyabr oyida Samarqandda o'tkazilgan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari professional musiqasining an'analari va zamonaviylik, yoki 1980 may oyida Xivada o'tkazilgan «Og'zaki an'anaviy musiqada professionallik» mavzusida o'tkazilgan anjumanlarda, avloddan – avlodga ya'ni maqomlarning amaily, nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib maqoi san'atini propoganda qilish masalasida amaliy tadbirlari qilinib olindi, maqomlarni sevish va tushunish hamda badiiy zavqlari uchun birinchi bor xalqning oddiy ko'rinishdagi qo'shiqlarni yaxshi bilish, hamda qadrlash, bu qo'shiqlar zaminida ya'ni oddiylikdan murakkablikka o'tish natijasida xalq musiqaviy merosiga mehr – muhabbat uyg'otish bilan bir vaqtda bu asarlar inson qalbiga olam – olam badiiy – estetik zavq bag'ishlaydi. O'zbek musiqa madaniyatining taniqli arboib, akademik Rajabiy o'zining «Musiqa merosimiz haqida» degan asarida xalq ohanglari bilan, maqom ijrochilik yo'llarining chamchas bog'liqligi to'g'riisda to'xtalib, «maqom yo'llari bilan xalq musiqa asarlari orasida hech qanday farq yo'q. Xalq musiqaning kichik yoki yirik shakldagi hamma turlari maqomlarining u yoki bu qismiga ohangdosh», degan edi. Xalq qo'shiqlar o'zining ohang tuzulishi va ritmik ko'rinishlari bilan xalq og'zaki ijodining professional ko'rishi bo'lgan ko'p qismli vokal cholg'u asari bo'lmish maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Maqomlar asosan ovoz diapozonining kengligi va masshtabning kattaligi, ijrochilikdagi

murakkabligi bilan xalq ashulalaridan farq qiladi. Maqomlarning ijrochilikdagi murakkaligi va hozirgi vaqtda o'rta maktablardagi musiqa darsini jarayonida hamda krujok mashg'ulotlarida atroflicha tahlil qilib o'rganilganligi uchun ham, bu nodir musiqa merosimizdan yoshlar ham bahramand bo'lmoqda. Chunki xalq qo'shiqlari, maqomlar asarlar Osha xalqimiz og'zaki ijodidan tushmasdan qo'llanib bizgacha yetib kelishligini boisi ham bu qo'shiqlarning xalq ma'naviyatiga ijobiy o'rin tutganligidandir.

1919 yilning yarmida xalq maorif kimissarligining san'at bo'limi qoshida, Turkiston respublikasida V.A.Uspenskiy rahbarligida musiqaviy etnografik komissiya tashkil etiladi. Bu komissiyaning asosiy vazifasi O'rta Osiyo xalqlari musiqaviy merosini to'plash, qo'shiq va maqomlarni yozib olish hamda alohida kitoblar holida nashr qildirishdan iborat edi. Samarqandda musiqa xoreografiya ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi. Bu xodisa musiqaviy merosini to'plash va o'rganish soxasida Yangi fikrlarni kashf etdi. Institut faoliyati xalq musiqasining ko'pgina bilimdonlari ijodi bilan chambarchas boqliq ravishda ish boshladi. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, domla Xalim Ibodov, Ilqoraxim Shomurodov, usta Olim Komilov kabi san'atkorlar institutga jalb etildi. Institut xalq musiqasini yozib olishda, musiqa tarixini o'rganishda, eng muhim, san'atning nodir turini propaganda qilishda ibratli ishlarni amalga oshirish. O'zbek xalq musiqa folklorini o'rganishda X.X.Niyozov, V.A. Uspenskiy, N.Mironov, B.M.Belyayev, Romanovskaya, M.Ashrafiy, Yu.Rajabiy, I.Akbarov, K.A.Alimboyeva, F.Karomatov va boshqa mutaxassislar katta mehnat qildilar. O'zbek xalq musiqasining qunt bilan to'plash va o'rganish natijasida musiqa tarixining 3 tomligi va boshqa ko'pgina asarlar yaratildi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining eng go'zal namunalari jahon haqlarining olqishiga sazovor bo'lmoqda. 1925 yil Parijda o'tkazilgan jahon xalqlari zeb – ziynat ko'rgazmasida o'zbek san'atkorlari Muhiddin Qori Yoqubov,

Tamaraxonim va boshqalarning chiqishlari tomoshabinlar taxsiniga loyiq bo'ldi hamda ko'proq yirik san'at va madaniyat arboblari tomonidan yuqori yuaholandi. Bu san'atkorlar yutug'i bilan «Yer yuzi» jurnali quyidagilarni yozgan edi: «O'zbek xalq ashulachisi o'rtoq Muxiddin Qori Yoqubov Parij tayetrlari o'zbekning najot istagan va yuraklaridan chiqargan qadimgi ohangdor navolari birga hozirgi tirik kuylarni o'zbekcha maxsus xususiyat bilan birga g'arbliklar oldida ijro etdi... Muxiddin Qori va Tamaraxonimlarning qiloq yigitlari bilan qizlarning laparlar aytishib, o'ynashib borganlari ko'rsatishlari xar kuni Yangi bir zavq istagan parijsliklarda boshqacha shavq uyg'otadi. Qishlog'imizdagi ishqning qanchalik tabiiy va chiroyli ekani ularga yoqdi, ashulachilarimiz olqishlar orasida saxnada qayta – qayta ko'rinmoqqa majbur bo'ldilar».

O'zbek musiqa san'atining olamga tanishli bu bilan cheklanmaydi. 1935 yil Londonda o'tkazilgan jahon xalqlari raqslari festivalda mashhur nayni, Qo'qonlik Abduqodir Islomov, doirachi usta Olim Komilov kabi ko'pgina o'zbek san'atkorlari ham ishtirok etishdi. Festivalda usta Olim Komilovning doira chalish maxorati yuksak baholandi va oltin medal bilan taqdirlandi.

Respublikada xizmat ko'rsatgan «Yalla» vokal – cholg'u ansambli 1975 yilda Yevropa davlatlarida konsert sayoxatlarida, jumladan, Vyetnamda gastrolda bo'lib, ulkan muvaffaqiyat qozondi. Tomoshabinlar olqishiga sazavor bo'lgan qo'shiqlarning barii asli xalq kuylari va qo'shiqlari asosida qayta ishlagan. Ansambol repertuaridagi «Sumalak», «Boychechak», «Qarg'alar», «Yallama - yorim», «Tom boshida tog'ora», «Ok terakmi ko'k terak» kabi qo'shiqlarda oddiy o'zbek hayotining qaynoq nafasi ufurib turadi. «Boychechak» qo'shig'ida bahor ramzining poetik ifodasi jo'shqin mislarida ko'kla bo'lib jonlanadi:

Boychechakim boylandi,
Qozon to'la ayronidir.
Ayroningdan bermasing,
Qozon tavog'ing vayronidir.

Bu qo'shiqlar faqatgina o'zbek xalqining madaniy boyligi bo'lb qolmadan, jahon san'atining umumiy maxsuliga aylandi. Chunki bunday qo'shiqlarning so'z turkumi aniq bo'lib, musiqiy ravonligi dillarni quvontiradi: ham ijro uchun qulay ham poetik rang – barangligi bilan ta'sirchan chqadi. Musiqa san'atining qaysi janrida bo'lmasin, operadami, baletdami, simfonik asardami yoki estrada kuylaridami, albatta xalq musiqasining salmoqli xissasi bor. Xalq mehrlari daryo ijodkor. Xalq musiqasining qaynar bulog'i yaratuvchilarining doimiy ilhom va ijod manbaidir.

Keyingi paytlarda xalq musiqasining o'rganishiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. O'zbek xalq musiqasini o'rganish butun ittifoq va jahon miqyosida tarqalmoqda. Xususan 1978 yil oktyabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan «Yaqin va O'rta Sharq xalqlari professional musiqasining an'analari va zamonaviylik» mavzuidagi xalqaro anjuman yoki 1980 yil may oyida Xivada o'tkazilgan «Og'zaki an'anaviy musiqada professionallik» mavzuidagi xalqaro simpoziumlarda avloddan – avlodga o'tib kelayotgan noyob xalq professional musiqasini san'ati bo'lmish maqomlarning Amaliy, nazariy tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib, maqom san'atini propaganda qilish masalasida Amaliy tadbirlar qilishdi. Maqomlar mohiyatini to'g'ri tushunish uchun avvalo oddiy xalq qo'shiqlarini sevish, musiqasini qadrlash, eng muhimi, madaniyat merosiga e'tiqod qo'yish lozim. Maqom oddiylikdan murakkalikka o'tishni talab qiladi. Oddiy xalq qo'shiqi va kuylarning qalbga olam – olam zavq bag'ishlovchi sexrini

bilmagan odam maqomday murakkab musiqiy mo'jizaning estetik zavqini xis eta olmaydi.

O'zbek musiqashunos Yunus Rajabiy o'zining «Musika merosimiz haqida» nomli asarida maqomning ijrochilik yo'llari xalq ohanglari bilan bog'liqlari masalasiga to'xtalib: «Maqom yo'llari bilan xalq musika asarlari orasida hech qanday farq yo'q. Xalq musikasining kichik yoki yirik shakldagi hamma turlari maqomlarning u yoki bu qismiga ohangdosh», - degan edi. Xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ravonligi v ritmik ko'rinishi bilan xalq og'zaki ijodining professional ko'rinishi bo'lgan ko'p vokal – cholg'u asari bo'lmish maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Musika darslarida og'zaki professional san'ati namunalari bilan tanishtirib borish bo'lajak musika o'qituvchilarda ma'naviy merosga samimiy muhabbat uyg'otadi, yoshlarni xalq qo'shiqlarni sevish, bobolarimiz ideallarini kuylagan barhayot misralarni qadrlashga o'rgatadi. Yoshlarni ma'naviy merosning doimiy ta'siri vositasida tarbiyalash zarur. Xalq qo'shiqlarini sevish musika merosining janrlari, xususan, san'atni tushunish, undagi musiqiy nafislik, poetik ramzlar nozikligi, maftunkor va jozibali ohanglaridan bahramand bo'la olish qobiliyati vujudga keltiradi. Xulosa qilib aytish kerakki, musika merosimiz hazinasidagi turli janrga mansub asarlar o'z milliy xususiyatlarini saqlangan holda zamon bilan xamnafas bo'lib yashamoqda, binobarn, musika san'atining tarbiyaviy imkoniyatlari bobida ham Yangi va bepoyon ufqlar kashf etildi.

Musika va tarbiya bir – biri bilan uzviy bog'liq xodisa sanaladi. Negaki, «O'rtar» yoki «Munojot» sevib tinglagan odam hech qachon irovga yomon ko'z bilan boqmaydi. Demak, musika – odamda insoniylik, samimiylik, birodarlik tuyg'usini kuchaytirish mo'jizakor kuch. Musiqining yaratilishi va tarraqiyoti xalqning iqtisodiy turmush tarzi, falsafi, estetik

qarashlari bilan bog'liqdir. Xalqning yaxshi kunlari ham, yomon kunlari ham kuy bilan birga o'tdi.

Darhaqiqat ilk bor qo'shiq qachon yaratilgan? Uni kim yaratgan? U qo'shiqchi nima haqda kuylagan? Bunisi bizga noma'lum. Lekin qo'shiqning sarchashmalaridan biri ona allasi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Har bir xalq onalarining o'z allalari bor. Ona qalbining teran-teranlaridan tug'iladigan o'ychan, zarif ohanglarda, allalarning sodda mazmunida inson bolasiga mehr uning istiqboliga nurli niyatlar barq urib turadi. E'tibor qilinsa, haqiqiy qo'shiqlarning tabiatda ona allasining bir chimdim oq fotixasini sezmaslik mumkin emas. Bu o'rinda atoqli kompozitor Ikrom Akbarovning "Xamza" kinofilmiga bastalagan "Alla", bastakor Karimjon Mansurovning "Alla" qo'shiqlarini eslatib o'tish fikrimiz isbotidir. Bu alla qo'shiqlarini xalq orasida mashhur bo'lib ketishida xalqimizning sevimli ustoz xonandalari xalq artisti Saodat Qabulova, O'zbekiston xalq artisti Habiba Axunovalarning ijrochilik mahoratlarini alohida qayd qilib o'tishimiz lozim.

Har bir zamonning o'z qo'shiqlari bo'ladi. Zamon qo'shiqlarini esa bastakorlar, shoirlar va xonandalar yaratadilar. Men ba'zi qo'shiqlarni ko'zda yosh bilan tinglaganlarni bilaman. Bunday qo'shiqlar maydonga kelguncha muallif qalbidan ne-ne mashaqqatlar o'tadi. Bunday qo'shiqlarni o'n xillab nus'haları yozilganining guvohimiz. Bu borada o'zbek qo'shiqchilik san'atida yangi sahifalar ochilib, uning shuhrati olamga yoyilishida katta xizmat qilgan bastakorlarimiz: Yu.Rajabiyning "Ne navo soz aylagay", "Koshki", "ra'nolanmasun", "Kuygay", T.Jalilovning "Otmagay tong", "Ey quyosh", "To'ylar muborak", "Kokiling", K.Jabborovning "Bu ko'ngul", "Esmasmidim", "Mubtalo bo'ldim senga", F.Sodiqovning "Ko'rsatmagay", "Barno yigit", "Bir go'zal", "So'lim bahor", N.Hasanovning "Samarqand", "Baxt yallasi", "Yayra go'zal", "Ko'rdim yuzingni", S.Kalonovning "Ey

sarvi ravon”, “Topmadim”, “Kuyla dilkash dutorim”, “I.Ikromovning “So’lim”, “Indamadi”, “Ul qora ko’z”, “O’ynasin”, “G’.Toshmatovning “Istadim”, “Sog’inib”, D.Zokirovning “Ey sabo”, “Ko’rmadim” kabi ashulalari xalqimiz qalbidan va qo’shiqchilik san’atimizning oltin xazinasidan joy olganligi guvohi bo’lib turibmiz.

Bu yerda shuni ham aytib o’tish kerakki, yuqorida aytilgan ustoz bastakorlar ijodining naqadar muhim va qimmatli va e’zozli ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga ulardan, tegishli tashkilot va tashkilotchilardan ijodga ham shu bilan bog’liq bo’lgan ma’muriy vazifalarga nihoyat darajada katat ma’suliy va g’amxo’rlik bilan, yuksak insoniy burch hissiyoti bilan qarashlarini talab hamda taqozo qiladi.

Bizga ma’lumki kuyga matn tanlashni uch tomoni bor:

1. She’r mazmuni kuy mazmuniga, xarakteriga to’g’ri keladigan bo’lishi kerak;

2. She’r mazmundor bo’lsin, badiiy jihatdan yuksak, tinglovchilarni har tomonlama go’zallik va nafosat ruhida zamonamiz talabi darajasida tarbiyalashga yordam beradigan bo’lsin. Axir musiqa baland falsafiy bo’lsa-yu, unga past she’r ulansa bundan yomon ijod bo’lmasa kerak, yoki aksincha;

3. Kuy qo’shiq ohangiga, vazniga she’r ohangi, vazni ichki musiqasi to’g’ri keladigan bo’lsin, bir-birini to’ldiradigan ilohiy ta’sirchanligini ta’min etadigan bo’lsin, so’z birikmalari jarangi bir tomonga, kuy, qo’shiq ohangi boshqa tomonga tortadigan bo’lmasin. Ular o’rtasida to’la garmoniya bo’lishi shart.

Musiqa bilan poeziya shaklan, mazmunan ham bir-biriga uzviy bog’langan egizakdir. Bularni otasi ham, onasi ham ishqdir. Ikkovi bir-biriga uzviy bog’langan holda ijro etilsa, ulardagi ilohiylik, kuch qudrat, jozibalik nihoyatda oshadi.

She'riyatda "Musiqiylik" deyilgan ibora qo'llaniladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki she'r talaffuzi qilib o'qilganda ham, ashulaga tushirib aytilganda ham ravon va jozibali yangrashi lozim.

Har bir san'atning ham o'ziga xos "tili" bo'ladi. Musiqa va she'riyatda buni his va tuyg'ular tili deyiladi. Ular o'rtasidagi xuddi mana shu tilning birligi ularning mushtaraklik tomonini ta'kidlab turuvchi omillardan biridir. Bu ikki ilohiy san'at asarlaridagi obrazlarning ifodaliligi emosional boyligi, har birida ham shakl va ritmning mavjudligi musiqa va poeziyaning bir-biriga chambarchas bog'liqligini yana bir bor isbotlaydi.

Xo'sh, shu nuqtai nazardan qarajak bizning zamonaviy qo'shiqlarimizning hozirgi ahvoli qanday? Biz kelgusi avlodlarga qaysi qo'shiqlarimizni qoldirishimiz mumkin? Ba'zi "bo'tka", "Quroq" asablarni qaqshatadigan shovqin-suronli ma'nosiz harakatlari, be'mani imo-ishoralar, milliylikdan uzoq liboslarga zo'r berilgan qo'shiqlarimizni eshitib kelgusi avlod, shumi, bizga merosingiz deb bizdan ranjimasmikin?

Axir bugungi mustaqil farovon turmushimiz, baxt saodatimiz, nihoyat bugungi mustaqilligimizni aks ettiruvchi avlodlarga qolsa arziydigan qo'shiqlarni kim yaratadi? Qachon yaratiladi bunday ashulalar?

Xalq nazariga tushgan xonanda va sozandalarimiz o'z ustlarida ishlash, repertuarini davr qo'shiqlari bilan boyitib borish haqida kam o'ylayaptilar. Ba'zilarining repertuari bir joyda qotib qolsa ayrim xonandalarning repertuari tobora qashshoqlashib bormoqda.

22 sentyabr 1994 yil O'zbekiston televideniyesining 3-dasturi orqali efirga uzatilgan "Noon-stop shou" deb nomlangan tomoshani ko'rib, bu turdagi san'atimizning bugungi nochor ahvolidan qattiq tashvishlandim, iztirob chekdim. Bu haqda 2 oktyabr 1994 yil "Xalq so'zi" ro'znomasida jurnalist Hakim Sattorovning katta maqolasi e'lon qilindi, hamda juda keng

muhokama va munozaralarga sababchi bo'ldi. Men bu konsertni televizor ekrani orqali ko'rdim va nihoyat yoqamni ushlab xudoga nido qildim.

Biz hozirgacha musiqa san'atimizning sofligi uchun kurashib, uni nimadan asrab, nimani qoralab kelgan bo'lsak, shu illatlarning barchasi shu konsertda jamlangan. Men konsertning ba'zi lavhalarini bayon qilmoqchiman. Quloqni kar, batang qiladigan musiqa sadolari ostida parda ochiladi. Sahnada boshlovchi paydo bo'ladi, u gapira boshlaydi. Shovqin-suronli nutqining nihoyatda dag'alligidan boshlovchini tushunish qiyin. O'zbek tilidagi so'zlarni qayirib, sindirib inglizcha qolipga solib gapirayotgan bo'ladi.

Shundan so'ng sahnaga yarim yalang'och ayollar, sochini turmaklagan, ro'mol yopingan erkaklar chiqadid dod deb yer tepishib, sakrab, dumalab, o'z hunarlarini namoyish etishadi. Badanni uchirish, besunaqay qo'l harakatlari, ishoralari, ayollarning "antiqa" ovozlari eshitiladi.

Konsertning asosiy maqsadi: "Havaskor yoshlar ijodini targ'ibot qilish va ommalashtirish" qarangki bu yoshlar bizning san'atimizni jonkuyarlari "Targ'ibot qilish va ommalashtirish" ustida bosh qotirishyapti. "O'zbek davlat estrada" birlashmasining ma'lumotiga qaraganda hiech qayerda ro'yxatda bo'lmagan "Ofariz", "Shum bola", "Oqshom", "Ahil", "Shaydo", "Tong sadosi" jamoalari bu konsertda qatnashganlar. Chet el sahna boyvachchalariga ko'r-ko'rona taqlid qilish aniq ko'zga tashlanadi. O'zbekcha so'zlarni buzib talaffuz qilish nihoyat avjida. Shou konsertda yangragan qo'shiqlarni tinglab esa ensang qotadi. Ularda na did, na ijrochilik mahorati bor. Qo'shiq matnlariga e'tibor bering. "Oppoq go'zal, sevganimga sen ishonmading, bir kulib qo'ymading". Seni eslab yuragim qonga to'ladi, yana ko'rsam hayotimni beraman. Tanishlardan so'radim hiech kim bilmadi qizaloq", "Bir oqshom chog'i uratgandim seni, shoshilma bilaman" kabi qo'shiqlar haqiqiy san'atdan yiroq havaskorlarga xos taqliddir.

Xalq musiqa san'atining boshqa sohalaridek, bastakorlik san'atida ham o'ziga xos muammolar bor. "Ustoz ko'rmagan" bastakorlarning asarlarida janrga xos shakl va usullariga urg'u berilib asar mazmuni vazifasiga mutlaqo ahamiyat berilmaydi. Ayniqsa ijro uchun eng muhimi hisoblangan toza intasiya asar mazmuniga mos tushmasligi musiqaning umrini qisqartirmoqda. Bunday misollarni o'zlaricha she'r yozib, kuy bastalab ijro qilayotgan havaskor bastakorlar ijodidan ko'plab keltirish mumkin. San'atsevar xalqimiz bunday mantiqsiz "taraqa-turuq" kuy va qo'shiqlarni yoqtirmaydi va eshitmaydi.

Keyingi yillarda Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Baxtiyor Aliyev, Xalimxon Jo'rayev, Shavkat Mirzayev, Ne'matjon Qulabdullayev, Ahmadjon Dadayev, Tursunboy Jo'rayev, Tuyg'un Otaboyev va boshqa bastakorlar ijod qilgan kuy va qo'shiqlar xalqimizga manzur bo'lmoqda. Bu iste'dodli bastakorlarning musiqiy ijodini tahlil qilar ekanmiz. Haqli ravishda o'zbek bastakorlik san'atining savodli davomchilari borligiga to'liq ishonch hosil qilamiz.

To'g'ri, bastakorlarimiz, qo'shiqlarimiz katta-katta ishlar qilmoqdalar, yutuqlarimiz ko'p. Har kuni radio karnaylardan va zangori ekranimizdan eshittirilayotgan ajoyib kuylar, qo'shiqlar shundan dalolat beradi. Ammo yoshlarni mustaqil Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalovchi, odamlarga sabr-toqat, matonat bahsh etuvchi, mehnatni, tinchlikni madh etuvchi qo'shiqlar bundan tashqari bayramlarda, tantanali kechalarda ko'pchilik bo'lib aytiladigan qo'shiqlarimiz juda kam desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu holat ham kompozitor va bastakorlarimizdan o'z ijodlariga yanada jiddiy va keng ko'lamli e'tibor bilan qarashlarini taqozo etadi.

Xullas har bir davrning o'z ashulalari bo'lganki ular musiqa san'atimiz tarixida munosib o'rin olgan. Yillar o'tsada, xalqimizning sevid tinglaydigan

ashulasi bo'lib qolgan. Shu o'rinda qo'shiqchiligimiz oldida ko'ndalang bo'lib turgan ayrim muammolarni aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Birinchidan, havaskor yosh xonandalar ishini nazorat qilish uchun O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida, viloyatlar markazlarida, shaharlarida badiiy kengashlar tuzish kerak.

Ikkinchidan, havaskor yosh bastakorlar seminarlarini muntazam ravishda tashkil qilish.

Uchinchidan, havaskor ansambllar jamoasini konsert dasturi komissiya orqali nazoratdan o'tkazib maxsus ruxsatnoma (lisenziya) berishni tashkil qilish zarur.

To'rtinchidan, ansambl ishtirokchilarini xalq pedagogikasi zamini asosida tarbiyalashni to'g'ri yo'lga qo'yish shart.

Beshinchidan, ustoz va shogird an'alarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sosoniylar sulolasi davrida yetishgan mashhur sozandalar Nekso Changiy, Ozadvar Changiy, Gersni Novagar, Sarhash va Sarkablar bevosita yoki bilvosita Borbad shogirdlari bo'lib ularning ijrochiligida xalqchillik ustuvor o'rin egallagan. Borbad bastakor va hofizgina bo'lib qolmay, istedodli shoir ham edi. Uning aksariyat kuylari va she'rlari matniga yozilgan. O'sha davrdagi hijoliya barmoq vazniga yaqin yangi she'riy shaklning ixtiro qilinishi ham Borbad nomi bilan bog'liq.

Abu Ali ibn Sino (983-1037) qalamiga mansub "Kitob ash-Shifo" (Shifo kitobi) ning "Ilm al-rizoyat" (Matematika) qismida Javonu "Ilmi al-musiqiy" bo'limida musiqa va tabiyot olamining o'zaro bog'liqligi haqida ham teran fikrlarini bayon qiladi.

Temur va Temuriylar hamda ularning ilm, madaniyat va san'atga homiylik faoliyatlarini davom ettirgan Bobur va Boburiylar davrida mazkur sohalarda ikkinchi uyg'otish jarayoni yaqqol kuzatiladi.

O'zbek musiqa merosini asrab qolish va boyitishga hissa qo'shgan san'atkorlardan biri Yunus Rajabiy (1897-1976)dir. Yu.Rajabiyning o'zbek musiqasining deyarli barcha janrlariga mansub yozuv namunalari ko'p tomlik "O'zbek xalq musiqa"si (1955, 1957, 1959) da nashr etilgan. Ushbu to'plamlarda, jumladan, bolalar qo'shiqlari, xalq aytimlari (qo'shiq, lapar, yalla, ashula), katta ashulalar, cholg'u kuylari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari muhtasham Shashmaqom turkumi kabi xalq qo'shiq va musiqalari munosib o'rin olganlar.

Ushbu manbalar musiqa darsliklarini yaratuvchi mualliflar uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi. Chunki ularda o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirishga xizmat qiladigan xalq qo'shiqlarining eng sara namunalari kiritilgan.

Hozirgi kunda O'lmas Saidjonov, Munajat Yo'lchiyeva, Nasiba Sattorova, Zamira Suyunova kabi hofizlarning misoli yoshlarimizda xalqimizning musiqiy merosga bo'lgan intilishi ular namunasida ma'naviy-axloqiy yetuk inson bo'lib yetishish istagi qaror topmoqda. Maktablarda ularning rasmlarini osib qo'yish, magnit tasmasidan foydalanish o'zbek musiqa merosini o'quvchilar orasida targ'ib qilish imkonini beradi.

Xalq qo'shiqlari va musiqiy an'alarini jamlash, ularni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan juda ko'plab ilmiy risolalar yaratildi. Akademik Yunus Rajabiy boshlab bergan ulkan ishning davomi sifatida musiqashunos olimlar I.Rajabov, M.Yusupov, G'.Karomatov, T.G'ofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, T.Solomonova, O.Ibrohimov va boshqalar xalq musiqiy merosining turli janrlarida salmoqli ishlar qildilar. Ular tomonidan chop ettirilgan, ya'ni Yu.Rajabiyning 6 tomdan iborat musiqa asarlari to'plami (1956, 1957, 1959 yillar) hamda olti jildlik "Shashmaqom" kitobi (1973 y), I.Rajabovning "Maqom masalalariga doir" – doktorlik dissertatsiyasi (1963 y), M.Yusupovning 3-jildlik "Xorazm maqomlari" (1984, 1987 y), G'.Karomatovning 2 jildlik "Xalq qo'shiqlari" (1978, 1985 y), T.G'ofurbekovning "O'zbek ashulachilik maktabi" bo'yicha yoqlagan dissertatsiyalari o'zbek musiqa ahlining asosiy muammolarini

hal qilib berishga qo'shiqlan ulkan hissa bo'ldi va ular musiqa ahli orqali yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning muhim maktabi hisoblanadi. Ayni paytda xalqimiz orasida yozib olingan qadimiy va yangi yaratilgan xalq qo'shiqlari juda ko'plab topiladi. Musiqa o'qituvchisi musiqa tilini yaxshi bilishi mutaxassis sifatida bu xalq qo'shiqlarini baholi qudrat yozib olishlari yoki ulardan og'zaki o'rganib musiqa darslarida qo'shimcha material sifatida foydalanishlari lozim bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining qo'shiq repertuarini boyitish maqsadida qilingan muhim ishlardan biri Respublika miqyosida o'tkazilayotgan "O'zbekiston Vatanim manim" ko'rik tanlovi hisoblanadi. Xalq ta'limi vazirligining tashabbusi bilan o'quvchilar uchun mos qo'shiqlarni mualliflardan yozib olish keng yo'lga qo'yildi va natijada "O'zbekiston Vatanim manim" nomi bilan qo'shiqlar to'plami chop etila boshlandi.

Hozirgi kunda shunday kitoblar o'quvchilarning qo'shiq repertuarini yangi, zamonaviy qo'shiqlar bilan boyitishga ham muhim hissa bo'ladi. Bu chop ettirilgan to'plamlardan ham o'quvchilarning Vatanga sadoqat, mehnat kishilarga hurmat, farzandlik burchi, g'urur va faxr hislarini rivojlantirishga imkon beradigan o'nlab qo'shiqlarni tanlab olish mumkin.

Turli viloyatlarda kuylash uchun bo'lgan xalq qo'shiqlarini notaga yozib olish va ularni chop ettirish bo'yicha ham dastlabki qadamlar qo'yildi. Xususan, "Jizzax xalq qo'shiqlari" bu sohada yaratilgan dastlabki qo'llanmadir. Bunday qo'llanmalarning barcha viloyatlarda kuylanadigan qo'shiqlarini jamlab chop ettirishi va ularni maktab dasturlariga tanlab kiritish xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qildi.

Shunday to'plamlardan biri "Asrlarga tengdosh qo'shiqlar" majmui bo'lib, unda asosan, xalq qo'shiqlarining matni berilgan. Unda Qashqadaryo,

Surhondaryo, Samarqand, Jizzax, Buxoro, Xorazm, Toshkent, Farg'ona, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida kuylangan xalq qo'shiqlari jamlangan. Bu qo'shiqlari turli janrlarga mansub bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

1. Allalar;
2. To'y qo'shiqlari;
3. Termalar;
4. Aytishuvlar;
5. O'lanlar;
6. Motam va marosim qo'shiqlari;
7. Ramazon;
8. Navro'z qo'shiqlari (sumalak, boychechak, sayilga kel, sust xotin, halinchak va h.k.)

Xalqimizning urf-odatlarini, marosimlarini bilan mavzu jihatidan chambarchas bog'langan bu qo'shiqlarga kitobda malum tahlilnoma berilgan bo'lsa-da, uning notalar bilan berilmaganligi ulardan maktab musiqa darslarida foydalanishni murakkablashtiradi. Musiqa o'qituvchilari uchun yordam sifatida ushbu qo'shiqlarning notalashtirilgan variantlarini taqdim qilish zarur.

Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda "xo'p mayda" yoki "mayda gul", sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi uloqlarni emizishda "xo'p-xo'p", "gurey-gurey", "churey-churey" qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'uchoq tortish, charx yigilish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash tarzi, turli-tuman irim-sirimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p xalq qo'shiqlarining namunalari yaratilgan.

“Navro’z” bayrami bilan bog’liq bo’lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchiko’chatekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga hurmat ko’rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar inom etish, mashalalar yoqib, ariq, daryolar bo’yiga borish, sayllar o’tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro’z bayramida yetti xil (bug’doy, arpa, no’xat, jo’xori, guruch, mosh, loviya) dan go’ja tayyorlanib, qo’ni-qo’shnilarga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy manoga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog’ingarchilikning mo’l bo’lishi (yog’ingarchilik ko’p bo’lsa, hosil mo’l bo’ladi, chorva uchun yem-xashak serob bo’ladi), tinchlik, farovonlik bo’lishi, odamlar o’rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Shunday qilib, qo’shiq tarixida ham, hozirgi davrda ham, kelajakda ham insonga ma’naviy ozuqa, ruhiy hamroh bo’lib xizmat qiladi, qo’shiq kunda hamdard bo’lib, shodligingda yayratadi, hayot uchun kurashga chorlaydi. Demak bizga barcha mavzularda mukammal qo’shiqlar suvday kerak.

2.2. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqiy didni shakllantirishda xalq qo'shiqlaridan foydalanish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa predmetining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

O'zbekiston «Ta'lim to'g'risidagi» qonuniga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limning demoklashtirish, induallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish konsepsyasi ishlab chiqildi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarda, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim – tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogir an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, sozanda, xonandalar, katta ashulachilar, maqomlar, dostonchilar asarlarining elementlar asoslarini o'rganishni me'yorlashtirdi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining mungli, mag'rur, jozibali ohanglari inson qalbiga kuchli ta'sir etishi bilan birga, kishining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Hali yozuv bo'lmagan davrlardayoq xalq o'z qo'shiqlarida qiyin va tahlikali turmushining turli qirralaridan kuyga solib tarannum etgan. Xalq ijodini o'rganishda jiddiy e'tibor berilsa, har bir madaniyat uylari qoshida folklor ansambllari, xor jamoalari, xalq raqsi va maqomchilari gruppalari tashkil etish

qiyin emas. Bu sozandalar, madaniyat xodimlari tashabbusining olingan safida borishlari kerak. Chunki darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchilar xalq musiqa folklori xalqlari istagan ma'lumot berishi mumkin.

Hozirgi musiqa savodining xilma-xil formalari va axborotda boyligi bilangina emas balki texnikaviy jihatdan qo'llanganligi bilan xam ajralib turadi. O'qituvchilarning badiiy didini tarbiyalashda musiqa darslarini ta'lim-tarbiyaning musiqa darslarini ta'lim tarbiyaviy jarayoniing mustaxkam talablariga muvofiq musiqaviy estetik tarbiyaning to'laqonli bo'lishi uchun musiqa xonalarida ovozni yozib oluvchi va qayta eshittiruvchi apparatlar nota to'plamlari, musiqa to'g'risida kitoblar ko'rgazmali qurollar kompozitorlarining portretlari proyeksiya apparatlari musiqa asboblari turkumi bo'lmog'i kerak.

Darsda o'qituvchilarni tarbiyalashda o'qitish rivojlantirish ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqalarda amalga oshirish qochirimlari amalga oshirilmog'i kerak. Bu o'zbek musiqa pedagogikasining g'oyat muxim prinsiplaridan biridir.

Musiqa san'atining mazmunini tushuntirish tinglovchining umumiy madaniyatida shuningdek uning tahlil tayyorgarlikka egaligiga bog'liq bo'lib, tahlil tayyorgarlik o'z navbatida tinglovchi e'tiborining aktivlik darajasida ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchining idroki bayroq bo'ladi.

Xalq donishmandligining go'zal ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi bilan yoshlar dunyoqarashida muhim vositasida sifatida musiqa maktablarida va saroylarida keng o'rganilmoqda. Xususan o'zbek xalq musiqa merosida qo'shiq eng demaktratik janr bo'lib, xalq psixologiyasi, ruhiyatini, xalq hayoti va dunyoqarashi haqida mukammal ma'lumot mavjudki, bu ohanglarni idrok etish uchun o'sha xalq ruhiyatini tushunish mumkin.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy-estetik ruhda tarbiyalashda, ular qalbida go'zallikka havas uyg'otishda san'atning barcha turlari qatori qo'shiqning xizmati ham benihoya kattadir. Biroq, kimdir kinoga tushmasligi, yana kimdir teatrqa bormasligi yoki kimdir ko'rgazma zaliga borishga vaqt topmasligi mumkin. Ammo mening nazarimda, qo'shiq hamma eshitadi. Chunki qo'shiq uyda ham, ishxonada ham, yo'lda ham, hatto samolyotu ham xar doim hamrohdir. Shunday ekan, xonandaga boshqa san'atkorlarga qaraganda ko'proq ma'suliyat yuklanadi. Shu bois xonanda o'zining bosib o'tgan yo'lga tanqidiy ko'z bilan qarashi, kelajagiga esa g'oyatda jididy nigoh tashlashi kerak. Bugungi xonanda har jihatdan savodli, xushyor o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchan bo'lishi kerakligini hayotning o'zi taqozo etib turibdi. Qo'shiq xoh televideniye, xoh radio karnaylar orqali, xoh konsert zallarida yangramasin uni minglarcha kishilar tinglaydi. Mana shu muhim g'oyaviy, ma'naviy quroldan xalollik bilan, odilona foydalanishi kerak, uning zarbi, yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va boshqarish esa muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi yaratgan musiqaviy merosining ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimiz maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. 1932 yil oktyabr oyida «oktyabryonka» kemasi bortida o'lkamiz o'tmishining bebaxo boyligi rang - barang suratli tosh plita chiqarildi. Tabiat manzarasi ifodalangan zangori fonda uch musiqachi ayol tasviri chizilgan: ulardan biri arfa ikkinchisi lyutka, uchunchisi esa barabanga monand cholg'u asbobi ushlagan. Termizdan 13 km yuqorida joylashgan sobiq shahar xarobalaridan qiziqib olingan boshqa muzikantlar tasviri tushirilgan topilmalar. Ayritosh nomi bilan fonda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar sanaladi. Bu topilmalar hozirgacha noma'lum desa bo'ladigan qadimiy musiqa madaniyatining allaqachon

unutilib ketgan so'qmog'idagi yorqin ijrodir. 1946 yilda Xorazm voxasining qoq yuragidagi – Sulvon Uvays tog'ining janubiy tizimlari boshlanadigan tekiliklardagi qadimiy Tuproqqaladan Yana bitti arfa chaluvchi ayol tasviri topildi. Musiqashunos – arxeolog R. Sadokov ning fikricha, bu topilmalar III – IV asrlarga mansub ekan. Bu tarixiy materiallar O'rta Osiyoda musiqa san'ati yuksak darajada rivojlanganligi ko'rsatadi. Eramizning dastlabki ming yilligidayoq o'zbek musiqasi va qo'shiqlari mashhur bo'lgan ko'rinadi. Chunki XI asrning mashhur tarixchisi va tilshunos Maxmud Qoshqariy o'zining «Devonu lug'ati turk» asarida juda ko'p cholg'u asboblari nomini tilga oladi. Ayniqsa ud, qubiz, keng tarqalgan. Olim bu davrda qo'shiq hamda maqom ijro etish ancha taraqqiy etganligini ham tasdiqlab, quyidagilarni yozadi: «Kochkuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni past q baland qilish», «Devonu lug'ati turk», III, 144 bet. Musiqa qadim zamonlardan o'q keng tarqalibgina qolmasdan, balki ancha rivojlangan edi. Mashshoqlar cholg'u asboblari alohida va ansambl bo'lib dilrabo kuylarni chalishgan. O'rta asrlarda va undan keyin musiqaga oid juda ko'p ilmiy asarlar yozilganligi ma'lum. Shulardan ayrimlari masalan, yirik matematik Abu Abdulla Muxammad bin Muso Xorazmiyning «Musiqa bo'yicha traktat» asari bizgacha yetib kelmagan yoki xaligacha topilmadi. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim al – Farobiyning musiqaga big'ishlangan «Musiqa haqida katta kitob» asari cholg'u madaniyatimiz tarixining o'qilmagan saxifalarini irmuncha oydinlashtirish imkonini beradi. Al – Farobiyning bu asari 1935 yilda R. D. Erlanjenn tomonidan fransuz tilida nashr etilgan.

Darhaqiqat, inson turmushini qo'shiqsiz, musiqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy oziq berib qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muxim rol o'ynagan. Mashhur olim Abu Ali ibn Sino, Avisina o'zining «Kito bash-Shifo» asarida yozishicha, musiqa

kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalaridan biridir deydi. Musiqa va kuyning paydo bo'lishini olim shunday izoxlaydi: «Tabiatning o'zi odamlarga nutq ato qilgan. U shartli xarakterga ega bo'lib, xushomad qilganda, o'z tobeligini bildirganda yoki yalinganda tovush mayinlashib, natijada so'z ta'sirli chiqadi va o'z maqsadiga erishadi. Keyin taqlid qilinib, ayniqsa odamlarga katta orom bog'ishlaydi».

Umuman olganda mehnat jarayonida inson ongi takkomillashdi, hamma modiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi ommaning bevosita ma'naviy ijodi folklor tarzida ya'ni ijod vujudga keldi va taraqqiy etadi. Bu esa xalq og'zaki ijodiyotining go'zal namunalari bo'lmish qo'shiqlar, musiqalar, raqslar, dostonlar, ertaklar vujudga kelishi uchun sababchi bo'ldi.

1-7 sinf o'quvchilariga o'rgatiladigan o'zbek xalq qo'shiqlari:

I-sinf.

1. "Chittigul". O'zbek xalq qo'shig'i.
2. "Oq terakmi, ko'k terak". O'zbek xalq bolalar qo'shig'i.
3. "Osmondagi oy". O'zbek xalq aytishuvi.
4. "Choriy chamber". O'zbek xalq aytishuvi.

II-sinf.

1. "Olatoy" O'zbek xalq bolalar aytishuvi.
2. "Yomg'ir yog'aloq". O'zbek xalq qo'shig'i.
3. "Boychechak" O'zbek xalq qo'shig'i.
4. "Laylak keldi". O'zbek xalq bolalar o'yini.

III-sinf.

1. "Lola". O'zbek xalq qo'shig'i.
2. "Quyvon". O'zbek xalq bolalar qo'shig'i.
3. "Buxorcha II". O'zbek xalq qo'shig'i.

4. “Poyezingni yurg’izgin”. O’zbek xalq qo’shig’i.

IV-sinf.

1. “Fabrika”. O’zbek xalq qo’shig’i.
2. “Ramazon”. O’zbek xalq qo’shig’i.
3. “Alla”. O’zbek xalq qo’shig’i.
4. “Sustxotin”. O’zbek xalq qo’shig’i.

V-sinf.

1. “Qizlar to’y xori” – “Bo’ron” operasidan S.Vasilyenko va M.Ashrafiy musiqasi.
2. “Ovozing seni”. “Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonidan.
3. “Arg’amchi-gilamchi”. O’zbek xalq qo’shig’i.
4. “Oymomo va Gulnora” – “Yoriltosh” bolalar operasi. S.Boboyev musiqasi.

VI-sinf.

1. “Dangasa”. O’zbek xalq qo’shig’i.
2. “Yumalab-yumalab”. O’zbek xalq qo’shig’i.
3. “Hoy bola”. O’zbek xalq qo’shig’i va musiqasi.
4. “Sumalak”. O’zbek xalq qo’shig’i va musiqasi.

VII-sinf.

1. “Daryo toshqin”. O’zbek xalq qo’shig’i.
2. “O’zbekiston diyorim”. O’zbek xalq qo’shig’i.
3. “Hakkalabon”. O’zbek xalq qo’shig’i.
4. “Halinchak”. O’zbek xalq qo’shig’i.

Tanlab olingan 28 ta qo’shiq tajriba guruhida biz tavsiya etgan metodlar yordamida o’rgatildi va nazorat guruhiga esa faqat materiallari berildi, uni o’qituvchining o’zi amalda dars jarayonida qo’llaydigan metodlari yordamida o’quvchilarga o’rgatishga harakat qildi.

Asosan, o'quvchilarning intellektual o'sishini rivojlantirish uchun o'zbek xalq tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalq qo'shiqlari mazkur xalqning boy tajribasi, hayot va turmush tarzi ifodalaydi. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari va badiiy-falsafiy ma'naviyati yorqin ifodasini topgan. Bu buyuk madaniy qadriyatlar xalqning ma'naviy kamolati uchun bebaho omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo bugungi kunga qadar bolalar xalq qo'shiqlari musiqa dasturlari va darsliklaridan yetarlicha o'rin olmagan.

Uzoq o'tmishda sinkretik san'atining namunasi bo'lgan qo'shiqlar uni yaratuvchilar va ijro etuvchilarning mehnat faoliyati – ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari xalq Amaliy san'ati – kulolchilik va boshqa san'atlar bilan bevosita aloqada bo'lib, Ayni chog'da mehnatkash ommaning qadimiy urf odatlari, xilma – xil marosimlari va e'diqodlari negizida yashab kelgan. Shunday qilib dunyoni badiiy va estetik did bilan faxmlay olish, badiiy so'z taraqqiyoti folklorining dastlabki janrlarini yuzaga keltirdi. Folklor professional san'atdan tarixan avval vujudga kelib, uning muayyan shakl olib rivojlanishda asosiy manba rolini o'ynaydi. Yozuv taraqqiy etmaganligi, reaksiyon sinflarning qarshiligi tufayli qadimgi davrlardagi xalq qo'shiqlari bizning kunlarga yetib kelmagan.

Maktabda milliy musiqani o'rganishga bag'ishlangan o'zbek xronikasi, ssenariy muallifi D.Omonullayev va rejisyor X.Fayziyevlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmasi "O'zbek xalq musiqasi" o'quv filmidan boshqa qo'llanma mavjud emas.

Musiq ta'limi sohasida mavjud muammolarni o'rgangan holda "O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limi konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Unda musiqa ta'limining milliy va ilmiy asoslari mazmuni, tuzilishi, tabaqalanishi, musiqa o'qituvchisiga bo'lgan zamonaviy talablar va ta'limning ilmiy-uslubiy taminlanishi bayon etilgan,

haftasiga 1 soatdan musiqa ta'limini joriy etish nuqtai-nazaridan o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Unda har bir sinf va chorak uchun muayyan mavzular belgilangan.

Shu yo'nalishda umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktablaridan tashqari ta'lim muassasalarida maqom ansambli dasturi (tuzuvchi muallif O.Ibrohimov), ushbu muassasalar uchun xalq ansambli dasturi (tuzuvchi muallif G'.Xidirov) yaratilgan. Shunnigdek, musiqa ta'limining yangi o'quv dasturi ishlab chiqildi. Lekin bular xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish uchun yetarli emas.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha o'quv fanlari bo'yicha darsliklar yaratildi. Shu jumladan, 1-7-sinflari uchun musiqa darsliklari ham ishlab chiqildi. Bular 1 sinf musiqa alifbosi, 2-3 va 4-sinflar uchun "Musika" darsliklari, 5-6-7-sinflar uchun "Musika" darsliklari. Bu darsliklardagi o'quv materiallari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy, ruhiy kamol toptirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan "Musika darslari"ning mohiyatini o'rganish natijasida asosiy urg'u o'zbek xalq ijodiyotiga berilishi zarur degan xulosaga keldik. Chunki xalqimizning milliy kuy-qo'shiqlari zamirida yoshlarni mardlikka, halollikka va poklikka chorlovchi hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi oliyjanob tuyg'ular mujassam etilgandir. Albatta, bu kabi ijodiy va masuliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, xalq musiqa ijodini yaxshi bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassislar bo'lmog'i lozim. Musika darslarining samarador bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining bilim saviyasi, milliy dunyoqarashi, xalq qo'shiq va kuylarini nechog'lik ezozlashi, ularni badiiy yetuk tarzda ijro eta olishi va umuman, kasb mahorati va madaniyatiga bog'liqdir.

Shu o'rinda takidlash joizki, Qozog'iston Respublikasi tomonidan ham barcha sinflar uchun yangi "musiqa" darsliklari ishlab chiqilgan va ular, birinchi navbatda xalq eposlari hamda boy xalq musiqiy an'alariga tayanganligini kuzatdik.

Bizning nazarimizda, Respublikamiz maktablari uchun chop etilgan darsliklari muayyan bir tizim asosida yaratilgan bo'lsa-da, biroq mukammal, xalq musiqiy an'alariga tayangan, betakror bir tizimga solinmagan. Xususan, xalq qahramoni Alpomishning ming yilligi o'tkazilishi arafasida O'zbekiston teleradio kompaniyasi tomonidan baxshilar ijrosidagi "Alpomish" dostoni to'liq matni magnit tasma-siga yozib olindi. Xalq og'zaki ijodiyoti, folklorlarning salmoqli qismini tashkil etuvchi yana o'nlab dostonlar baxshilarimiz tomonidan kuylanib kelinmoqda. Lekin ularning birortasi ham notalashtirilib, musiqa shinavandalariga, o'quvchi va talabalarga yetkazilgan emas. Xalqimizni asrlar davomida maftun qilib kelgan bu asarlar: "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Alpomish", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi o'nlab dostonlar yosh avlodni tarbiyalashning bosh mezoni, ma'naviy-ahloqiy tarbiya'ning asl sarchashmasiga aylanmog'i lozim.

X U L O S A

Mustaqil Respublikamiz milliy istiqloliy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldida ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy shakllanish, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarurdir. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamollikka erishish uchun avvalo, ahloqiy, ma'naviy va nafosat tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Malumki, o'quvchilarni ma'naviy ahloqiy sifatlarini shakllantirishida asosiy muammosi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishning muhim qarorlaridan biri va boshlang'ich vazifalaridan biri musiqa pedagogikasi fakultetlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni professional jihatdan puxta tayyorlashdan iboratdir.

Shunday qilib, biz bitiruv malakaviy ishimizda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini shakllantirish mustaqillik sharofati bilan yurtimizda milliy musiqamiz, milliy qadriyatlarimizning tiklanishini olamshumul ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Musiqa san'ati o'ziga xos bir olam. U mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar olami, ajib tuyg'ular va hissiy kechinmalar olami. Musiqa san'ati voqyelik va hayotiy kechinmalarni o'ziga xos badiiy obrazlari orqali ifodalaydi, tinglovchining yurak-qalbi, his-tuyg'ulariga ta'sir etish orqali unda turli qobiliyatlarni rivojlantiradi, ongi va tafakkurini o'stiradi, voqyelik va hayotni yanada kengroq va chuqurroq idrok etishga yordam beradi.

O'tmishimizga bir qadar nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hayotida jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkir-allomalar, o'z davrining eng ilg'or kishilari hayotida, ularning ijodi, izlanish va qarashlarida alohida o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asr davriga mansub bo'lgan va o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Hayyom, Kavkabiy, Changiy kabilarning ijodlari fikrimizning yorqin misolidir. Jumladan, Forobiy o'zining ko'p asarlari qatori "Kitob al-musiqiy al-kabr" (Katta musiqa kitobi) bilan ham mashhurdir.

Unda musiqa san'atining tarixi, rivojlanish qonuniyatlari, musiqashunoslikning ilmiy va nazariy masalalari yoritilgan bo'lsa, "Ihso ul-ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi) asarida esa musiqaning insonga ta'sir kuchi quyidagicha ta'riflanadi: "Bu ilm o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini mukammal qiladi, muvozanatda bo'lgan kishilar xulqini esa muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Tana kasal bo'lsa, ruh kasal bo'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh to'siqqa uchraydi. Ovozlarining, ya'ni ohanglarning ta'siri bilan esa ruhni, binobarin, tanani sog'aytiriladi".

Buyuk tabib Ibn Sino ma'lumotlariga qaraganda, bemorlar yoqimli musiqa ohanglari yordamida mulohaza qilingan. Uning ta'kidlashicha bolalarda go'zal san'atga bo'lgan moyillik va ehtiyojni shakllantirish qanchalik barvaqt boshlansa, shuna foydali. U o'zining "Ash shifo" kitobida yozadi: "Kichik yoshdagi bolalar organizmi uchun foydali vositalar qatoriga badan tarbiya bilan bir qatorda bolani allalash vaqtida kuylanadigan qo'shiq va musiqa kiradi. Bola shu ikki narsani o'zlashtirishiga qarab unda jismoniy mashqlarga va musiqaga nisbatan moyillik tug'iladi, bularning biri tanga, ikkinchisi qalbga taaluqlidir".

Abdurahmon Jomiy o'zining "Musiqqa haqida risola"sida maqomlar haqida fikr yuritib, har bir maqom sho'basining kishi ruhiga ta'siri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yurgazgan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Majolisun nafois" va "Mahbub ul-qulub" asarida musiqa ilmi, uning insoniy kamolotida tutgan o'rni, musiqa va go'zallik tarbiyasi, o'tmish va o'z davrining yetuk san'atkorlari – musiqashunos, bastakor va hofizu-mashshoqlar haqida atroflicha ma'lumot beradi.

Fitrat, Muqimiy, Hamza, Qori-Niyoziy, Chustiy, Turob To'la, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, musiqa naqadar nafis san'at ekanligi, uning she'riyat bilan doimo hamohangligini, bu san'atni inson ruhiga madad berishdek, uni ulug' ishlarga chorlashdek ta'sir kuchiga ega ekanligini tarannum etilganini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.: O'zbekiston, 1996.-366 b.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4–T.:O'zbekiston, 1996.- 349 b.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5-T.: O'zbekiston, 1997,-384 b.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barQaror taraqqiyot yo'lida. T.6-T.: O'zbekiston, 1998,-429 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barQarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.– T.: O'zbekiston, 1997.–326 b.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: «Sharq», 1997.- B.20-29.
7. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: «Sharq», 1997.- B.31-61.
8. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-T. – T.: O'zbekiston, 2005. – 448 b.
9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiyalash va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. – 176 b.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
11. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
13. Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad / Prezident I.A.Karimovning «Yuksak bilimli va intellektual avlodni

tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

14. Omonullayev D. va boshqalar. Davlat ta'lim standartlari. Toshkent. Dastur. 1999 yil.

15. Ismoilova M. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish. Toshkent "Istiqlol" nashriyoti. 2006 yil.

16. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). Avtoreferat. Toshkent. 2010 yil.

17. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixidan. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 1996 yil.

18. Rajabov I. Maqom asoslari. Respublika ta'lim markazi. Toshkent. 1992 yil.

19. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 1983 yil.

20. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 1993 yil.

21. Hamidov H. Musiqa-qo'shiqchiligimiz tarixidan. Toshkent. "O'qituvchi". 1995 yil.

22. Begmatov S. Orifxon Hotamov. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2000 yil.

23. Janaydarov Sh. Musiqada ta'lim va tarbiya birligi. Toshkent. Respublika o'quv-metodika markazi. 1996 yil.

24. Matyoqubov O. va boshqalar. Shashmaqom saboqlari. Toshkent. 2007 yil. Ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazi.

25. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent. 2000 yil.

26. Ibrohimov O., Nurmatov H. "7-sinf uchun uslubiy qo'llanma". 2001 yil.

27. Qudratullayev H. Musiqiy merosimiz tarixidan. Guliston. 1996. №36.

11-bet.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakul'teti bitiruvchilari, 511100 - musiqiy ta'lim yo'nalishi musiqa nazariyasi va an'anaviy ijrochilik kafedrasining 2014 yil 27 mayda bo'lib o'tgan №10 yig'ilish bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Samarqand shahri
27 may, 2014 yil.

Qatnashdilar:
Kafedra mudiri va barcha kafedra a'zolari.

KUN TARTIBI:

Ikkinchi masala: IV kurs bitiruvchilari bakalavriat darajasidagi talabalarning bitiruv malakaviy ishlarini muhokama qilish va himoyaga tavsiya etish.

Kafedra mudiri katta o'qituvchi Sh.N.Mustafayev bitiruv malakaviy ishlarining himoyaga tavsiya etish maqsadida ularning hozirgi vaqtgacha bo'lgan tayyorgarligi haqida gapirdi. So'ngra bitiruv malakaviy ishlarining mualliflariga so'z berildi.

ESHITILDI: IV kurs bitiruvchilari Bobojonova Mavluda To'ymurodovna - «Jo'rsiz xorlar maktab o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalash vositalari» ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Boboyeva Sitora Amonovna - «Opera ijodiyotining yoshlar tarbiyasidagi o'rni» (M.Ashrafiy operalari misolida), ilmiy rahbar prof. M.Quronov, G'ofurova Nozigul Uchqunovna - «Samarqand musiqa o'quv dargohlarining rivojlanishi yoshlar tarbiyasida» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Oydinov Otabek Baxromovich «Litsey va kolledj o'quvchilarini tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ahamiyati», ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Isayeva Sarvinoz Husenovna - «O'zbek kompozitorlari asarlarida Vatanparvarlik mavzularining yoritilishi» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevich - «Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini estetik shakllantirish» (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Djurayeva Orasta Axmadovna - «Musiqa san'ati orqali o'quvchi shaxsini sxloqiy-estetik hislatlarini shakllantirish» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Karimov Alisher Odilovich - «O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiyolimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Qurbonova Feruza Hasanboy qizi «Shaxs kamolotini rivojlantirishida musiqa tarbiya nazariyasining o'rni» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Xolboyev Ro'ziboy Eshmuratovich «Musiqa fol'klori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning o'ziga xosligi» (5-7 sinflar misolida) ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Jumaboyeva Gulasal Xasanovna «Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida musiqa san'atining o'rni» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Nurmuxammedov Bobur Anorboy o'g'li «Musiqa san'ati va estetik tarbiya muammolari» (kollejlarda misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Teshayev Zoxid Asqar o'g'li «Milliy qadriyatlar va musiqa san'atining rivoji» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Umrzoqov Sayfiddin Iskandarovich «Mustaqillik yillarida musiqa madaniyati» (litseylar misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Asrorova Shaxnoza Shavkatovna «Umuminsoniy qadriyatlar tizimida musiqa san'ati» ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova nomli ishlarining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mazmunlari haqida ma'lumotlar berildi.

SO'ZGA CHIQQILAR: katta o'qituvchi Sh.Mustafayev, dots. N.S.Qiyomov, dots. J.J.Kozimov, dots. G.Q.Xurramova, o'qituvchi M.A.Akramovalar Malakaviy bitiruv ishlarining barchasi talab darajasida bajarilganligi, bu ishlar nizom qoidalariga to'liq javob berishlari e'tirof etiladi. Ishlarni ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisobladilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI:

1. IV- kurs bitiruvchisi Burxonov Muhammadbashirning bitiruv malakaviy ishi to'g'risidagi kafedra a'zolarining bildirgan fikrlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bitiruv malakaviy ish to'g'risidagi ba'zi bir kamchiliklar Yakuniy Davlat attestatsiyasiga qadar bartaraf etilsin.
3. Burxonov Muhammadbashirning malakaviy bitiruv ishi YaDA himoyasiga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

Sh.N.Mustafayev

Kotiba:

Xolmurodova S.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakul'teti Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevichning "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik didini shakllantirish" (O'zbek mumtoz musiqasi misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach dastlabki kunlardan boshlab, jamiyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi madaniy sohada ham ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, aholi ma'naviyatini yuksaltirish, kishilarda ma'naviy tafakkurni shakllantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratila boshlandi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zbek mumtoz musiqasi bilan tanishtirish, ularda ilgari surilgan g'oyalar bilan tanishtirish asosida estetik didini badiiy-musiqaviy tushunchalariga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida ularning chuqur musiqiy bilimlarga ega bo'limlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish talab etiladi.

Burxonov Muhammadbashir tomonidan tayyorlangan ushbu malakaviy bitiruv ishida o'zbek mumtoz musiqasining bo'lajak musiqa o'qituvchilarini estetik badiiy didini shakllantirishdagi roli, o'zbek mumtoz musiqasi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilari estetik didini shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari, maqomlar va o'zbek mumtoz ashulalarini ijro etish texnikasini o'zlashtirish usullari to'g'risida so'z yuritiladi.

Bitiruv malakaviy ishda shuningdek o'zbek mumtoz musiqasi namunalarini o'rgatish asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy estetik didini shakllantirish yo'llari, bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy estetik didini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ish natijalari mavzuni chuqur o'rganish, adabiyotlar tahlil asosida bildirilgan fikrlar asoslangan holda umumlashtirilgan.

Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Burxonov Muhammadbashir mustaqil tayyorlangan. Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Men taqrizchi sifatida Burxonov Muhammadbashir tomonidan mustaqil tayyorlangan bitiruv malakaviy ishini yakunlangan ish sifatida deb baholayman va uni YaDA da ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Samarqand shahar 1-son pedagogika kolleji

Musiqa bo'limi o'qituvchisi:

B.G'oyipov

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakul'teti Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevichning "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik didini shakllantirish" (O'zbek mumtoz musiqasi misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'sib kelayotgan yosh avlodni mumtoz musiqasi bilan tanishtirish, ularda ilgari surilgan g'oyalar bilan tanishtirish asosida ularda nafosat hissini, estetik didini va badiiy-musiqiy tushunchalarga ega bo'lishida muhim rol o'ynovchi shaxslar sanaladi. Shu sababli ta'lim jarayonida ularning chuqur musiqiy bilimlarga ega bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zbek mumtoz musiqasi namunalari-maqomlar va mumtoz ashulalar bilan yaqindan tanishlari, shuningdek, ilmiy cholg'u sozlarida ijro eta olish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishlari ularda badiiy didini boyitishga imkon berishi masalalari Burxonov Muhammadbashirning malakaviy bitiruv ishida yuqorida bildirilgan fikrlar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Burxonov Muhammadbashir tomonidan mustaqil tayyorlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida o'zbek mumtoz musiqasi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy estetik didini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishda ishning maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi ilmiy jihatdan puxta mantiqli asosda yoritilgan bo'lim, ishda bildirilgan ilmiy fikrlar bo'lajak didini o'zbek mumtoz musiqasida yoritilishi, o'quvchi yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan foydalanilgan.

Burxonov Muhammadbashir mustaqil tayyorlangan. Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Men taqrizchi sifatida Burxonov Muhammadbashir tomonidan mustaqil tayyorlangan bitiruv malakaviy ishini yakunlangan ish sifatida deb baholayman va uni YaDA da ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Pedagogika kafedrası :

o'qituvchisi Sh.O'sanov

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakul'teti Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevichning "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik didini shakllantirish" (O'zbek mumtoz musiqasi misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarning xulosasi.

Mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida o'qitiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqlol g'oyasi asoslari negizida qaytadan shakllantirildi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda o'zbek xalqining boy musiqiy merosini, asrlar osha sayqal topib kelgan mumtoz asarlarni izchillik bilan o'rganish va ularning badiiy ruhiyatidan foydalangan holda yuksak badiiy didini shakllantirish muhim ahamiyatga molik masaladir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'sib kelayotgan yosh avlodni mumtoz musiqasi bilan tanishtirish, ularda ilgari surilgan g'oyalar bilan tanishtirish asosida ularda nafosat hissini, estetik didini va badiiy-musiqiy tushunchalarga ega bo'lishida muhim rol o'ynovchi shaxslar sanaladi. Shu sababli ta'lim jarayonida ularning chuqur musiqiy bilimlarga ega bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zbek mumtoz musiqasi namunalari-maqomlar va mumtoz ashulalar bilan yaqindan tanishlari, shuningdek, ilmiy cholg'u sozlarida ijro eta olish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishlari ularda badiiy didini boyitishga imkon berishi masalalari Burxonov Muhammadbashirning malakaviy bitiruv ishida yuqorida bildirilgan fikrlar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Burxonov Muhammadbashir tomonidan mustaqil tayyorlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida o'zbek mumtoz musiqasi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy estetik didini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishda ishning maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi ilmiy jihatdan puxta mantiqli asosda yoritilgan bo'lim, ishda bildirilgan ilmiy fikrlar bo'lajak didini o'zbek mumtoz musiqasida yoritilishi, o'quvchi yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan foydalanilgan.

Men ilmiy rahbar sifatida Burxonov Muhammadbashir tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishni muallif tomonidan to'plangan ish sifatida, qo'yilgan masala to'laqonli yoritilganligi bitiruv malakaviy ish talabalariga to'liq javob berishini va yakunlangan ish deb baholayman. Uni YaDA da ochiq himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. N.S.Kiyamov